

Birinchi Bob

So'zni ichkilikning "karomati"dan boshlayin. Bu xumpar "yovvoyilik" davrida boshimga shunaqa savdolarni soldiki, heh-he! Yaxshiyamki, sakson beshinchi yilda chiqqan anovi qaror ichkilikning bo'yniga arqon tashladiyu omon qoldim, yo'qsa, hozir "chin" dunyoda huru paykarlar bilan "atiy-batyi" o'ynab yurgan bo'larmidim?

Bir safar deng, shu "shayton"ning "sharofati" bilan ishimdan ham, uydan ham haydalganman. Keyin qishloqdagi odamlarning ulbul yumushini qilib berib, bir qultum-yarim qultumga yarasha pul ishlab yurdim. Bora-bora ish topilmay qoldi. Shundan so'ng desangiz, choponni yelkaga tashladim-u, "Namangan qaerdasan", deb yo'lga ravona bo'ldim. Ijara haqisi arzonroq deb, kolxoz-sovxo bozorining mehmonxonasiga joylashib oldim.

Baxtinga, mehmonxona qorovuli musofirparvargina chol ekan. Savob bo'ladi, g'arib ekan deb har kuni ertalab menga choy damlab beradi. Choyni ichib, ishga jo'nayman. Birovning devorini suvayman, boshqasining tomorqasini chopaman... Ishqipib, chaqasini olaman. Birov kechki ovqat oldidan "dori" quyib beradi, birov - yo'q. Lekin bari-bir ko'chaga chiqqach, bufetlarni (u vaqtlarda bu isqotining urug'i ko'p) albatta "iskab" o'taman. Mehmonxonaga kelsam, qorovul choyni tayyorlab turgan bo'ladi. Bir choynakni bo'shatib o'rnimga kiraman.

Bir shanba kuni "hidlash" muddati uzayibroq ketib, mehmonxonaga odatdagidan kech qaytdim. "Chamaningda gulzor-e, omon bo'l, omon bo'l"ni vang qilib mehmonxonaga kirsam, navbatchi kampir "joy yo'q", deydi-da! Meni kelmasa kerak deb o'ylashgan emish. Janjalni boshlab, endi avjiga chiqmoqchi bo'lib turgan edim, kimdir turti. Qayrilib qaragam, qorovul chol. Meni xonasiga boshlab bordi-da, bir ko'rpa-yostiqlik va oq choyshabni qo'limga tutqazdi.

- Mang, yarim kechada shovqin solib yurasizmi! ЁЎ”dedi. - Ayyondami yoki boshqa biron joydami yotaqoling. Bir kechaga hech narsa qilmaydi. Yoz, issiq. Har ehtimolga qarshi, kiyim-boshingizni yechib, menga berib qo'ying.

Yechinib, kalta ishtonda hovliga chiqdim. Qancha uxladim, bilmaytlan. Bir mahal cho'chib uyg'onsam, kimdir silkityapti. Shirin uyqumni buzgan qiligi' sovuqning kim ekanini bilmoqchi bo'lib shu urinaman, o'zimni o'nglab ololmayman. Shabada turibdi shekilli, sovgotib ketibman. Men yotgan yer to'xtovsiz tebranyapti. Ba'zan "jiq-jiq" ko'tarilib tushaman. "Yo parvardigori olam, - deyman ichimda, - bu nima? Yer qimirlayapti, shekilli! "Lo iloha illollo, Muhammadin rasul ollo", kalima qaytaraman o'zimcha. Bir payt yuqoriga qaragam, daraxt shoxlari "shuv-shuv" etib orqa tomonga "chopib" ketyapti. Yulduzlar esa "shoxdan-shoxga sakrab" menga ergashib boryapti. "Yo parvardigori olam, bu ne ko'rgilik!"

Jon holatda urinib, o'ng tirsagimga arang tayandim. Endi o'rnimdan turmoqchi bo'lgan edim, gursillab chalqanchasiga yiqildim.

- Di-di-it!..,

"E-ha, bu moshinaning skgnali-ku. Ha, moshina", - O'ylayman vahima ichida. - Bu meni qayoqqa, nega olib ketyapti? Kiyim-boshim... Cholga berib, hovliga chiquvdim. Joyni... nahotki, moshina ustida uxlagan bo'lsam!"

Qishloqliklar, odatda, shanba kunlari shaharga meva, sabzavot, qovun-tarvuz keltirishadi. Ularny bozorga tushirishadi-da, o'zlari o'sha men panoh topgan kolxoz-sovxo bozori mehmonxonasiga kelib tunashadi. Kechikkan shofyorlar ham ulovlarini hovliga qo'yib, mehmonxonada bir oz uxlashadi-da, saharda qishloqlariga qaytib ketishadi. Shuni bila turib, nega moshinaga chiqib oldim? E, mastlik o'lsin, mastlik!

Shamol g'uv-g'uv urib turibdi - badanni teshaman deydi. Tishlarim orasidan "hah" deb havo so'raman, "ha!" deb chiqaraman. "Hih, ha-hih, ha!" Oraga aksirish ham suqilib turadi. "Ha-ha-ha, afshu!" "Ha-ha, ha, afshu!" "hah-hah, ha, afshu!"

Bu ahvolimdan shofyorni xabardor qilishim kerak, qaror qildim o'zimcha. Moshina to'xtasa yo tushib qolaman, yo kabinasiga kirib olaman. Urina-urina choyshabga o'randim. Ikki uchini bir qilib tishlab oldim. Taxtalarga urila-surila o'rnimdan turdim. Kabina tomiga tap-tap urdim. Yelday uchib borayotgan moshina "g'iyq" etib taqqa to'xtadi. Oldinga qalqib, yiqilib tushishimga bir bahya qoldi. Shofyor - ingichkagina yigitcha kabinadan otilib chiqdi. Chiroqchasini yoqib yuzimga tutdi. Bir narsa deyishga ulgurmadim, "voy!" dediyu, o'zini kabinaga oldi. Moshina haligidan ham tez uchib ketdi. Bolasi tushmagur, nega bunday qildi - tushunolmadim. Yana taqillatdim, yo'q, tezlik ortsa-ortadiki, kamaymaydi! Noiloj o'tirib, ming azobda ko'rpani belimga o'rab oldim. Ha, mayli, tasalli beraman o'zimga. Tongda yalang'och sayohat qilish peshonada bor ekan-da! Ammo, manzilim qaer bo'lar ekan?

Kechasi bo'lgani uchun yo'llar bo'm-bo'sh. Mashina burilishlarda ham tezligini pasaytirmaydi. Daraxt shoxlari shovillab o'tib turibdi. Yulduzlar ham men bilan birga yelib boryapti.

Yurdik-yurdik, nihoyat ikki yonda milt-milt qilib chiroqlar ko'rina boshladi - biror qishloqqa yetdik chog'i.

Yorug'roq joyga kelganda mashina "g'iyq" etib taqqa to'xtadi. Kabina eshigi shiddat bilan ochildi va undan shofyor bola chiqdi, u yoq-bu yoqqa qaramay, ko'chaning chap tomoniga yugurdi.

Dam o'tmay "tap-tup" oyoq tovushi eshitildi. Qaradim. Bir melisa men tomonga chopib kelmoqda. U o'n qadamcha nariroqda to'xtadi. To'pponchadan osmonga qarata o'q uzdi. "Kimsan?" dedi baqirib. Indamadim. Zotan, gapirishga madorim ham yo'q, tilim ham aylanmas edi. Dir-dir qaltirayman, tishlarim takillaydi.

- Kimsan?! - dedi militsioner yana. ЁЎ”Tur o'rnindan! Tur!

Choyshabni yopinib, ikki uchini tishlagancha o'rnimdan turdim. Melisa beixtiyor orqasiga tisarildi,

- Sotvoldi aka! - deya qichqirdi o'ng tomonga qayrilib, - ho', Sotvoldi aka! Choping bu yoqqa! Tez! Tez!

Militsioner tag'in menga yuzlandi.

- Qimirlama! ЁЎ”dedi va yana osmonga qarab o'q uzdi. - Qimirlading, otilasan! Zum o'tmay shopmo'ylov bir.melisa yetib keldi.

Ko'zlarini uqalay-uqalay:

- Nima gap! - dedi hovliqib.

Sherigi javob berar-bermas, yelkasiga miltiq osgan bir chol ham paydo bo'ldi.

- Xo'sh, tinchlikmi? Melisa menga ishora qildi.

- Anavini qaranglar!

Ular "iy-e" deb angrayib qolishdi.

- Kimsan?

- Go'rdan chiqqan murda bu! - dedi chol, soqoli titrab. - Lo illoho illollo!

- Bo'lmagan gap! ЁЎ”dedi yosh melisa. - Murda go'rdan chiqa oladimi?

- Bo'lmasa arvoh yo jin bu! - vahima qildi chol. - Lo illoho illollo, Muhammadin Rasulillo!..

Harchand "men murda ham, arvoh ham emasman, Namangan mehmonxonasining ojiz fuqarosiman", demoqchi bo'lamanu aytolmayman, tilim kalimaga kelmaydi. Ustma-ust aksa uraman, kekiraman.

- Hoy, inson, javob bersang-chi! Bo'lmasa, tush bu yoqqa! Tushishdan boshqa chora qolmadi.
- Sotvoldi aka! - qichqirdi yosh melisa, - Siz chap biqiniga turing, siz, Nosir buva, o'ng biqiniga o'ting. Men orqada bo'laman.
Miltig'ingiz o'qlanganmi, buva?
- O'qlangan-u, bolam... - Chol orqasiga tisarildi, - men, men... Lo iloho illollo!..
- O'ting deyapman sizga! - O'shqirdi yosh melisa, - "Illollo" deydi-ya!
Chol hurkib-hurkib mashinani aylanib o'tdi. Miltiqning og'zini menga qaratdi.
- Qani, oyoqni oshir! Mana bu yerga qo'y.
Yosh melisa oyoq qo'yishim lozim bo'lgan joyni ko'rsatib, o'zi orqaga chekindi. Qaltiray-qaltiray oyog'imni oshirdim. Paypaslab zinani topdim. Yerga tushganimdan so'ng, yosh melisa ko'chani chap tomonini ko'rsatdi.
- Qani, bu yoqqa! - dedi. - Sotvoldi aka, siz oldinga o'ting. Nosir buva, siz do'koningizga choping.
Old-ortimda mirshablar, bir qator bo'lib melisaxonaga kirib bordik. Chortoqqa kep qolibmiz. Meni chog'roq xonaga qamab qo'yishdi. Tong otgach, mehmondo'stlikni qarangi, rosa ovqatlantirishdi, choy ichirishdi. Keyin so'roqqa tutishdi...
Uchinchi kuni menga kula-kula javob berishdi. Haligi melisalar ko'p dono, ko'p saxovatli odamlar ekan. Ust-boshimni ham but qilib berishdi. Oyog'imda jag'i ko'chgan qishlik botinka, boshimda soyaboni uzilib ketgan eski shapka, egnimda yelkasiga yamoq tushgan chit ko'yalak, pochasi tizzadan keladigan kalta shim. Ko'ltig'imda choyshabga o'ralgan ko'rpa. "Namangan qaydasan?" deb yo'lga tushdik-ku. Oh, o'shanda ko'rsangiz edi turqi-tarovatimni!..
Ha, aytmog'chi, shofyor bolaning taqdiri nima bo'ldi, demoqchisiz-da? Bolasi tushmagur o'shanda meni jin yoki murda deb o'ylab, ko'rqqanidan lablariga uchuq toshib ketibdi!..
Ko'rdingizmi, "obizamzam"ning "sharofati" bilan bir bandai musulmonning ham yuragini yorayozdim. Ammo mehmonxona ahlini qahqaha ummoniga g'arq qilib yubordim. Har kuni tekin kulgi. Bora-bora alam qildi. O'tmishimni tarix bisotiga qulochkashlab ulotirdim-da, otning boshini shartta qishloqqa burvordim. Rizqimga yarasha bir ho'plam-yarim ho'plam topilar-ku shu yoqlarda ham...

Ikkinchi Bob

Bir hisobdan, qishloqqa qaytib chakki qilmagan ekanman, "mo'ysafid" bilan surunkasiga "oshnachilik qiladigan" birorta ham shovvoz qolmabdi bu tomonlarda. Biri butilkadan licha chimqingan bo'ladi-yu, quyoning uyini mo'ljallab qoladi. Biri "jigarim chatoq" deydi - chap beradi, Biri qon bosimini o'rtaga soladi - O'zini olib qochadi. Mehmoniga zalvorliroq qadahdosh zarur bo'lib qolguday bo'lsa, meni qidirishadi. Sershisha dasturxon tepasida maza qilib o'tiraman. Mezbonga sipqarish bo'yicha o'rinbosarlik, mehmonga soqiylik qilaman. Kulaman, kuldiraman, ichaman, ichiraman. Nima qilamanki, mezbonning hojatini chiqarib, duosini olaman.

Avvallari "xalqaro ahvol" toza rasvo, - shu ichkilik tushmagurning "sharofati" tufayli kichkina bola ham menga qo'lini bigiz qilar edi. Bir hodisa sabab bo'ldi-yu, bular barham topdi.

Kunlarning birida qishlog'imiz do'konchisi Alivoy aka chaqirib keldi. Ipakday mayin. Hayron qoldim. Doim gerdayib yuradigan, nasiyaga shishaning dumini ushlatmagani yetmaganday, "do'kon yonida ichish mumkin emas", deya dag'dag'a qiladigan bu battolga nima bo'ldi? Do'konchi ahvolimni astoydil surishtirdi. Maqtadi. Ichkilikka qolganda filning bardoshiyu sherning qudratiga molik ekanimni ta'kidladi.

- Xo'sh, tinchlikmi, Alivoy aka? - dedim.

U dardini to'kib soldi. Sanitarlar do'konini yopib qo'yishibdi. Alivoy aka malomatga qolishdan cho'chib inspektorning oyog'iga bosh urguday bo'pti. Yalina-yalina uyiga olib kelibdi. Dasturxonga shishalarni terib tashlabdi. Afsuski, inspektor yo'lga yurmabdi. Ichirmasa bo'lmas, Alivoy akaning ko'ngli taskin topmas ekan. Ichirish uchun esa, uddaburon ulfat kerak ekan.

- Bilasan, o'pkam yamoq, zo'rg'a yuribman, bTb"zorlandi Alivoy aka, bTb"Yarim tomchiyam yutulmayman. Men ichmasam, u ham ichmayapti. Bormasang bo'lmaydi. Eping bor, kuldir, ich, ichir, murosaga keltir.

Piyanistaning tabiati nozik bo'ladi. Alivoy aka buni nazar-pisand qilmay, dilimni takror-takror vayron qilgan. Shuni eslab "yo'q" demoqchi bo'ldim-u, biroq ayrim jihatlarini nazarda tutib yumshadim. Alivoy aka uyiga yetguncha yo'l-yo'riq ko'rsatib bordi.

Inspektor yoshgina bola ekan. Ishni "boshladim". Ammo sira epaqaga kelmaydi-da zumrasha! Kadah sunaman, olmaydi, yolboraman, unamaydi. Alivoy aka pinhona iyak qoqishini qo'ymaydi. Ikki o't orasida qoldim. Shunda maynavozchilikni ishga soldim. "Inson taqdiri" filmidagi Sokolovga taqlid qildim. "Yigitning arsloni birinchi qadahdan so'ng zakuska qilmaydi. Yigitning zo'ri..." "Zakuska"siz uch marta "ko'tardim". Alivoy aka "ha, bo'l" qilib turibdi:

- Haqiqiy xo'roz yigit bu! Oshqozoni zavoddan chiqqan, domna pechni bir cho'qishda qochiradi.

Inspektor zavqlanib kuldi va nihoyat men boshlagan yo'lga "burildi". Keyin nima bo'ldi, bilmayman. Uyg'onsam, uyimda yotibman. Tuflining ipiga zarkokilday bejirim tugun tushgan ekan, chigalning uchini topolmay xit bo'lib o'tirsam, Alivoy aka kelib qoldi. Ishi oldinga "g'ildirabdi" shekilli, minnatdorchilik bildirdi, kasb-korimga kushoyish tiladi. So'ng to'rtta "To'qson besh" o'tli choyini so'riga qo'yib, iziga qaytdi.

Bor gap shu edi, Alivoy aka unga libos kiydirib, choyxonada so'zlab beribdi. Pivo, aroq va vinoni omuxta qilib ichganim ham, mineral suvini ijrg'anib ichib, orqasidan konKjyakni zakuska qilganim ham qolmabdi... To meni uyga telejkada eltib qo'yganigacha gapiribdi. Ertasiga yostiqdand choshgohda bosh ko'targan edim. Alivoy aka unga ham "picha tuzatish" kiritibdi.

- Og'zini voronka qilib salkam bir paqir aroqni ichvoruvdi. Azonda uchrashsam, hech narsa ko'rmaganday, o'qlangan miltiqday qotib turibdi, bTb"debdi. - Sortovoy piyanista deb mana buni aytadi, - debdi.

Choyxo'rlar yoqa ushlab qolishibdi. Bo'lg'usi mijozlarim esa yengil tortishibdi. Shundan keyin Alivoy akaning "ilg'or ish uslubi" va bizning oshqozon og'izga tushib ketdi. Ismim "sortovoy"ga aylandi. "Buyurtmachi" bolalay boshladi. Birovnikiga shishabop mehmon keladi, unga ulfat kyorak bo'ladi - bizning oshqozonga yumush topiladi! Birovning kimgadir ishi tushadi, bizning oshqozon yana xizmatda...

Oldinlari bu zormandaga xohlagan vaqtimda, istalgan ichimlikni bemalol quyaverar edim. Bora-bora mahallaga qaram bo'lib qoldim. Bu xususda mahalla oqsoqolidan maxsus ko'rsatma ham oldim.

- O'zboshimchalik qilmaysan, - tayinladi oqsoqol. - Faqat mahallaning ehtiyoji bo'yicha ichasan. Ko'pchilikning xizmatini qilsang, kam bo'lmaysan. Xizmatning yomoni yo'q, birov mahallaning oshini pishiradi, birov ko'chasini supuradi...

Sezib yuribman, kolxoza mehmon ko'p keladi. Raisimiz Solivoy aka quv odam. Biladiki, birovning ko'ngli ko'ngilxushlik bilan, birovniki ichkilik bilan obod... Solivoy aka oshqozonini ko'z qorachig'iday asrar, shu tufayli ikkinchi toifa mehmonni xushnud

etishda andek qiynalar edi. Idora xodimlari yurak oldirib qolgan, mehmonga dasturxon yozildi deguncha qochvorishar, mehmon esa, "yolg'iz otning dong'i chiqmas" qabilida oyoq tirab turib olarkan. Xullas, rais menday puxta ichuvchi va ichiruvchiga ehtiyoj sezib yurarkan. Uzunquloq gaplarni eshitadi-yu, hushyor tortadi. Darhol odam yuboradi. Havotirlanib idoraga keldim. Avvallari meni ko'rsa, Solivoy akaning qovog'i osilib ketardi. Bu gal ochiq chehra bilan kutib oldi. "Ha, Sortovoy", deb kulib ham qo'ydi. Keyin vazifamni tushuntirdi.

- Oshqozoningni kolxoz yumushidan boshqa ishga yurdirmaysan, - dedi oxirida. - Bog'bonning yordamchisi sifatida ish haqi olasan.

Shu tariqa meni butkul "o'ziniki" qilib oldi. Mehmon kelgani hamono "Volga" sida darvozamga salom berib turadi. Noz-ne'mat raisdan, mehmonga bir amallab mo'lroq ichirish mendan. Ha, darvoqe, ertasiga oshqozonning "ashula" sini va yangangizning "diydiyo" sini tinglash ham bor. Agar mehmon qadah ko'tarishni xohlamasa, Solivoy aka qo'lini ko'ksiga qo'yib iljayadi.

- Sog'ligingiz joyida, oling, - deydi mehmonga. - Bizga uzr. Oshqozonimiz operatsiya ustali muruvvatidan ikki marta bahramand bo'lgan. Qatron qilyapmiz. Bo'lmasa-yu... Kosalab ichgan vaqtlarimiz ham bo'lgan. Qani, olinglar, oq bo'lsin. Ha, barakallo, barakallo. Ot bilan tuya bo'larmidi, hazmi taom-da.

Mehmon Solivoy akaning ham ichishini qat'iy talab qilsa, rais nayrangga o'tadi. Dastlab soqiylikni mendan tortib oladi. Uchovimizning oldimizga ikkitadan bo'sh piyola qo'yadi. Ularning biriga ichkilik, ikkinchisiga mineral suv quyadi. So'ng mehmonning ko'zini shamg'alat qilib, aroqli stakanini mening suvli stakanimga almashtirib oladi. "Qani, qani", qilib ko'taramiz. Rais yolg'ondan "voy-voy" lab suvni suvga zakuska qiladi. Men sho'rlik aroq ketidan aroqni zakuska qilaman. Shu ravishda "aroq" ni Solivoy aka ichadi, spirt o'lgur bizning oshqozonga quyiladi. (O'ziniki go'yo noyob idish, spirt tegsa, siri ko'chib ketadi) Rais qaltis sinovlardan keyin bizning oshqozonni "domna pech" deb ataydigan bo'ldi. Menbop mehmonga ro'para qilishdan oldin yarim qadoq dumba yog'i bilan siylaydi. Bundan tashqari ombordan uyga guruch, makaron, un-pun obketib ham turaman. "Domna pech" xizmatdan bezillab qolgan edi, sanatoriya eltib "tblatdi". Lekin o'zim jonli guvoh (men ham birga borgan edim-da), to'rt hafta davomida "domna" ga spirt zotini yo'latmadi.

- Ana endi birinchi klass "domna" bo'ldi. Unga sifat belgisi bersa ham bo'ladi, - Solivoy aka qornimga mehri jo'shib qaradi. - Lekin, birinchi klass ekan deb kim nima quysa, ko'navermagin. "Leviy" ga umuman yurmagin. Sortovoy degan noming bor.

- Xo'p, - dedim. Biroq, yurmay bo'ladimi "leviy" ga. Bu yoqda hojat degan gap ham bor. Mana, masalan, beva xolam. Zavoddan g'isht so'rasa bermabdi. Nima qilish kerak? Zavodning ko'nglini ovlab xolamga yordam bermasam, insofdan bo'lmaydi.

Xolamning tugunini qo'ltiqqlab, bordim. Zavod direktori bilan uzoq laqillashib qolibman, pritsep to'la g'isht mendan oldin qishloqqa yetib kelib xolamning hovlisiga tushibdi. Zavod boshliqlari sha'niga ofarinlar aytdim. Ammo bir hisobda, olqish uvol ketadi ularga. Negaki, ming juft g'isht evaziga olti chervon tutqazdim. Boz ustiga ikki "mo'ysafid" ni pok-pokiza tushirishdik. Ulardan nima ketdi, akt nomli ajdaho bor. Yuz ming g'ishtni bir "yamlaydi", "falon ming g'ishtni suv bosib nobud bo'ldi. Muncha ming dona g'isht xumdonda erib ketdi..." Tuproq - suv tekin. Qog'ozning tilsizligi barchaga ravshan.

Ertasi kuni matlubot jamiyati omborining qorovuli keldi.

- Tez tegirmon boshiga yetib borar ekansan, - dedi. - Mudir tayinladi.

- Qaysi mudir?

- Valiev-da!

Qorovulning aytishicha, o'tirish sohiblaridan ikkitasi meni nishonga olib, yigirma besh so'mdan garov bog'lashibdi. Yarim litr "Ekstra" ni kosaga quyib bir ko'tarishda "otib" yuborsam, Valiev yutar ekan. Nima qildim endi? Bu yoqda "domna" hordiq talab, devorlari hilvirab og'riyapti. Bormaslikning yana iloji yo'q. Valiev ba'zan kamyob mollardan o'z narxida topib berib turadi. Hatto, ximchistkadan chiqqan kostyumimni yangisiga, buzuq televizorimni ohori to'kilmaganiga almashtirib bergan. Bordim. Ertasiga qarasam, cho'ntakda qovurg'asi sinmagan ikkita yigirma besh so'mlik turibdi.

Kechki payt sabzavotchilik brigadiri yo'qlab keldi. Qo'lida shisha to'la qizil so'mka.

- Akang aylangur Sortovoy, ekinlarim chanqab qovjirab yotibdi. To'g'on qorovulini bir insofga keltirib bermasang, hosilsiz qolaman, - dedi yalinchoq tovushda. - Bilasan, yurakning mazasi yo'q...

- "Domna" band, qo'li tegmaydi, b'f demoqchi bo'ldim-u, o'ylanib qoldim. Axir kuzda bir-ikki qopdan sabzi, piyoz bersa, teshib chiqarmidi! Bir-ikki qop nima ekan, o'n qop berganda ham kolxozning xazinasi kamaymaydi. Paykalda yetishtirilgan hosilni yig'ishtirib turib, tarozidan o'tkazishmaydi, hech qachon. Shu boisdan o'n tonnalab sabzavotni chetga eltib sotvorishadi.

Yetaklashib to'g'on boshiga ketdik. Tong mahali ko'zimni ochsam, to'g'on so'risida yotibman. Oyog'im qorovulning qornida. Asta qo'zg'aldim. Brigadir tunda g'oyib bo'lganicha, qaytib kelmabdi.

To'g'ondan qaytishda brigadirni uchratdim. Og'zi qulog'ida.

- Besh, besh! - dedi u yelkamga qoqib. - Kapsanga qarz bo'ldik.

Mamnun iljaydim. Biroq, Solivoy aka bu kayfiyatni bir ondayoq tilka-pora qilib tashladi. Oqshom menbop mehmon kelgan ekan. Raisning "Volga" si uch qur bosh uribdi darvozamga - yo'qmiz. Rais noiloj xashaki ichuvchilarni hasharga chorlab, arang ishini bitkazibdi.

- Kolxozchilarning mehnat minimumi bor. Sening ham, - dedi u hovridan tushgach. - Sen shu minimumni bajarmayapsan, Sortovoy! Agar tag'in "leviy" ga yurib "domna" xizmatini suiste'mol qilsang, ayab o'tirmayman. Qonun bo'yicha dabdalangni chiqarvoraman! "Domna" hamisha boevoy holatda tursin. Kolxozning og'irini yengil qilishga yarasa ham yetar!..

Yot ko'chaga kirmaslikka va'da berdim. Ammo, iloji yo'q-da! Birov qosh, birov ko'z - ko'ngil bo'lmaydi.

Oqsoqol ham urishib berdi.

- Mahallaning obro'si bo'lib turibsan! Boshqa yoqlarda nima bor? Mahallada sendan boshqa abjir yo'qligini bilmaysanmi?

Bunaqada "domna" ni charchatib qo'yasan-ku! Oshqozoning kasal bo'p qolsa qayoqqa yuguramiz!

Ertalab rais chaqirtirdi.

- "Domna" ning ahvoli qalay? - so'radi.

Kechagi "leviy" ning "huzuri" ni surayotgan edim. "Domna" og'riyotgan bo'lsa-da, bosh barmog'imni ko'rsatdim.

- Vot, po'latni eritishga qodir!

- Malades! - yelkamga qoqdi Solivoy aka. - Indinga senbop mehmon keladi. Bolta qassobga tayinladim. Yo'liqsang, dumba, yog'i beradi. "Domna" ni tobga keltir.

Kechga yaqin "domna" ga "ishlov berib" tursam, Anzirat xola keldi. Darrov fotihaga qo'l ko'tardi.

- Iloyo omin, baxtimizga oshqozoningning boshi toshdan bo'lsin, oblohu akbar. Gap bunday, xolang aylangur. Nevara kuyovim

kelgan edi. Bilasan, hozirgi yoshlar noziklashib ketgan. Dasturxonning burchagida shu yer yutkur shisha turmasa, qo'y so'ysang ham yozilmaydi peshonasining tirishi. Quysam, ichgani uyalyapti. Bir kirib...

Gapini bo'ldim.

- Zakaz bor, xola.

- Tug'ilganingda suyungan edik. Bir martagina ishim tushsa-yu!..

- Unaqa ko'rnamaklik qilmang-da! Yubileyingizdagi xizmatim esingizdan chiqdimi!

- Ha, u xizmatini to'yona qilgaisan. Joningdan sadaqa. Yo'q dema, bolam, savob bo'ladi.

Raisni ro'kach qildim. Kampir xomush tortdi.

- Raisga o'rdir qildirib kelsam kirasanmi? - dedi Ana xolos!

Kampirning kuyovi-ku, go'l, nimjon bola ekan, bir zumda ko'zi g'ilay, og'zini baymoq qilib tashladim. Ba'zan chayir va zabardast qadardoshlarga duch kelaman, "belini bukkuncha" Azroilning mehrini qozonay-qozonay, deb qolaman. Ehtiyot qismlar magazinida sotilsa ekan, qirqinchi razmerli oshqozon xarid qilib belimga mahkamlab olsam. Unday desam, boshqa "qismlarning faryodi ham ko'kka yetib yotibdi. Ichkilik qurg'ur odamning etiga o'ch bo'lar ekan, go'shtni shilib, terini suyakka yopishtirib tashladi. Bu yoqda tengdoshlardan xijolat chekaman.

- Biz ham "domna pech"dan biron marta foydalanaylik, baraka topkur, Sortovoy, - deb qo'yishadi. Har gal va'da berishdan nariga o'tolmayman. Mehmonu buyurtmachining keti uzilmaydi.

- Sortovoy, ertaga kolxozga mehmon keladi...

- Chorshanba kuni kichkina dasturxonimiz bor, birga baham ko'rsak... Yo'q desam - ginaxonlik.

- Mahalladan qarzimiz yo'q edi-ku!..

- Mazam yo'q, oshqozon yaramaydi, - iltijo qilaman yig'lamsirab. Xaridorim labini burib o'pkalanadi.

- Ha, bizga qolganda shunaqa ekan-da!

Qiyalib ketdim. So'ng shartta oshqozonni oldim-da, hayyo-huyt deb o'zga yurtlarga qochib yubordim. Anchagacha mahalla mulkini ko'tarib darbadar qochoq bo'lib yurdim. Tirikchilik tag'in eski asliga tushdi. Tunash joyim - mehmonxona. Kunduzlari odamlarning ro'zg'or yumushlariga qarashaman - bir stakan-yarim stakanga yarasha pul topaman. Axir, nafs o'lgur o'z holimga qo'ymasa, dodimni kimga aytaman! Xayr, shunisiga shukr, deymen. Ammo, hamisha xavf-xatar changalidaman. Axir, oshqozon o'g'risi sifatida qidiruv e'lon qilishsa, unda nima bo'ladi. Tutib olishib, mahalla buyumini o'g'irlashda ayblab sudga oshirishsa-chi? Yo'q, xayriyat, unday bo'lmadi. Lekin, ukam izlab keldi. Yetaklashib uyga qaytdik. Ana endi, "besh-to'rt kun rosa "tortadigan" bo'ldik desam, qayoqda! Yangangiz qaynog'asini o'qlangan zambarakday qilib qo'ygan ekan chog'i, soldati tushmagur sira shisha zotiga yaqinlashtirmaydi-da! Bu ham yetmaganday, bir kuni meni mashinaga bosib, shaharga olib ketdi. Allaqanaqa shifoxonaga topshirib yubordi, bemehr! E, voh! U yerdagi voqealarni men aytmay, siz eshitmang. Olti oy deganda chiqdim o'sha do'zaxsifat dargohdan. Biroq, quruq chiqmadim, yangi "dard" orttirib chiqdim. Ya'ni, bo'sh shishani ko'rsam ham o'qchiydigan bo'lib qoldim.

Uchinchi Bob

Olamga nomuborak daqiqada kelgan ekanmanmi, bilmadim, baxti qoralik menga ko'p yo'liqadi. Bir yo'liqqanda naqd o'ttiz sakkiz chervonimni shilib oldi, isqoti!

Yoz edi. Tong paytida shirin uyquda yotgan ekanman, kimdir hadeb turtkilaydi!.. Ko'zimni ochsam, yangangiz...

- Turing, dadasi, turing! - deydi labi-labiga tegmay. - Sho'rimiz qurib qoldi!..

- Nima! БҒ”sakra b o'rnimdan turdim.

- Qo'ylar qo'tondan chiqib, xamirni... Bir tog'ora xamirni yeb, suv ichib... Yarim yalang'och holda qo'ton tomonga yugurdim.

- Bu yoqda! - yangangiz ariqqa ishora qildi.

Keskin burilib, ariq tomonga chopdim. E, voh! Ikki bo'rdoqi ariq yoqasida to'ntarilib yotardi! Oyoqlar osmonda, qorinlar nog'ora, yorilaman deydi! Ikkovi ham inqillaydi, to'lg'anadi!..

Orqamdan halloslab yangangiz yetib bordi.

- Endi nima qildik? - dedim cho'g' ustida turganday betoqat bo'lib.

- Qassobga choping, - amr qildi yangangiz. - Keyin moldo'xtirga! Yo'q, oldin moldo'xtirga, keyin qassobga! Tez! Tez!

Mol achchig'i - jon achchig'i! Yugurib yurib kiyindim. Eh, velosiped la'natiyam buzuq edi-ku! Qo'shni Sotvoldinikiga g'izilladim. Voqeani aytdim.

- Shunga tezda moldo'xtir bilan qassobni matasekilingizda obkelib bering! - dedim o'pkam og'zimga tiqilguday bo'lib. - Iltimos, qattiq iltimos!

- Bajonidil edi-ku, - qo'shnim aftini burishtirdi. - Oyoqqa chipqon chiqqan, bir haftadan beri matasekil minolmayapman.

- E, darhaqiqat... kechirasiz...

Qo'shnim oqsoqlanganicha uyiga kirib ketdi. Hayron bo'lib turgan edim, zum o'tmay qop-qora jajji matasekilni potillatib yetaklab chiqdi.

- Mang, БҒ”dedi, БҒ”o'zingiz borib kelaqoling! Hayratdan ko'zlarim katta ochilib ketdi.

- Ie, nimalar deyapsiz? Axir, umrimda minmaganman-ku?

- E, valasapidni eplagan odam buni ham eplayveradi.

- Yo'g'-e!..

- Nima "yo'g'-e!" - Qo'shnim matasekalning murvatlarini bir-bir ko'rsatdi. - Mana, manovini mundoq qilib, manovini mundoq qilsangiz, asta yura boshlaydi. Manavini qattiqroq boss, angiz, tezlaydi, keyin...

Qo'shnim borini tushuntirdi. Biroq, yaqinlashishga yuragim betlamasdi. Nima qilsam ekan? Bu atrofda boshqa ulov yo'q. Piyoda chopqillasammikan? Yo'q, borib kelgu-nimcha, qo'ylar "saranjom" bo'ladi!..

Ikki bo'rdoqi, o'ttiz sakkiz chervon! Mol achchig'i - jon achchig'i! Tavakkal qilib, egarga o'tirdim. "Mundoq-mundoq" qilib, yurgizdim. "Mundoq-mundoq" qilib, tezligini oshirdim. Jonivar, naq yo'rg'alab ketdi.

- Xah, shu ekan-ku! - O'ylayman ko'nglim allanechuk ravshan tortib. - Hozir borib moldo'xtirni olib kelaman - vassalom...

Aytmoqchi, nimasini nima qilsa to'xtar edi bu matoh? Yo'lning tekisroq joyiga kelganda, ruldagi murvatlarga ko'z yugurtirib chiqdim. Ammo to'xtaydigan murvatini farqlay olmadim. Yuragim "shuv" etib ketdi. Akang qarag'ay, boya ta'lim olish chog'ida matasekilning "nimasini nima" qilsa yurishini o'rganibdi-yu, "nimasini nima" qilsa sekinlashini, yana "nimasini nima" qilsa, to'xtashini durustroq uqib olmagdi! Eh, pishmagan xom kalla!

O'z o'ylarim bilan bandman. Matasekil yelday uchib boryapti. Hash-pash deguncha moldo'xtirning darvozasidan o'tib, dalaga chiqib ketdim. Endi nima qilsam ekan? Murvatlarini "mundoq-mundoq" qilib ko'rsammikin? Yo'q, aslo! Axir, sekinlataman, deb bir nima bo'p ketsam, holim ne kechadi?

Bu tashvishlar yetmaganday, burnimning uchi bir qichiydi, biram qichiydiki! Qo'lni bo'shatib, qashlab olishga sira-sira yurak yo'q! Boshni u yoq-bu yoqqa ham burolmayman, ikki ko'zim yo'lda!

Axiyri o'n to'rtinchi brigadaning dala shiyponiga yetdim. Shiypon oldidagi xirmonni aylanib orqaga burildim. Qishloqqa kirdim. Moldo'xtirning darvozasiga yetganda, qattiq qichqirdim.

- Ikromov aka! Ho', Ikromov aka!..

Ikromov aka tovushimni eshitdimi, yo'qmi - shamolday g'uwillab o'tdim-ketdim. Nariroqqa borsam, qassob buva yo'l yoqasidagi ariqda yuz-qo'lini yuvyapti.

- Qassob buva!B"baqirdim. - Hovliga boring, qo'y chatoq!..

Dam o'tmay qishloqdan chiqib ketdim. Kengroq joyda qayrilib, yana qaytdim. Hovlimizga yaqinlashayotganimda ko'rdim - yangangiz bilan qo'shnim shoshilib uyga kirib ketishyapti. Demak, ish yanada chappasiga ketibdi.

- Sotvoldi!B"deya baqirdim. - Qaerini burasa to'xtaydi!

Sotvoldi turgan joyida qotib qoldi. Keyin nima dedi, nima qildi - bilolmadim. Bir mahal qassob buvaning hovlisiga yetib qolibman. Qassob buva artinib turgan ekan.

- Hali nima deding, Karimjon? - dedi.

- Pichoqni olib uyga boring!B"qichqirdim. - Qo'y chatoq...

Ko'chada bitta-ikkita odam o'rmalab qolgan edi. Zokir traktorchi ko'rinib qoldi. Uning ro'parasiga yetmasdan:

- Zokir aka, qaerini burasa to'xtaydi? - dedim.

Ammo Zokir akaning javobini anglamadim, "zuv" etib o'tdim-ketdim. Nariroqqa borsam, yo'lning qoq o'rtasida ikki kampir tippa-tik turib gaplashishyapti. Jon-ponim chiqib ketdi,

- Qochinglar! Qochinglar!B"baqirdim bor ovozim bilan. Darvoqe, "qaerini burasa" bibiplaydi? Kampirlar cho'chib ketishdi va o'zlarini darrov chetga olishdi.

Moldo'xtir haligi chaqirganimda ovozimni eshitgan ekanmi, ko'zi olazarak bo'lib, darvozasi yonida turibdi. Ro'parasiga yetay deganda:

- Uyg'a boring, qo'y kasal!B"dedim va o'qday uchib o'tdim-ketdim.

Qovun yuklangan eshak aravani "po'sht-po'sht!" deya quvib o'tib, yana boyagi xirmonga yetdim. Bir aylanib, izimga qaytdim.

Qassob buva, aftidan, biznikiga ketayotgan ekan, meni ko'rib qo'lini ko'tardi.

- To'xtat, mingashtirib ket!

"Voy otaxon-ey, to'xtat emish-a", deyman ichimda. To'xtatishni bilsam shu ko'ylarga tusharmidim!

Ko'cha eshigimiz yonida talvasaga tushib Sotvoldi turardi. U matasekilni qanday qilib to'xtatish mumkinligiga ishora qilar, nimadir deb baqirardi. Lekin uning harakatlaridan hech narsa anglay olmadim. Yana qishloqdan chiqdim. Ammo tag'in qishloqqa qaytishga yuragim dov bermaydi. Chunki, quyosh chiqib, ko'chada odam ko'payib qolgan. Endi nima qildim? Eshakka "ish" desangiz, darhol to'xtaydi. Otga esa "drr!" deyish kifoya. Bu moxov unaqa buyruqqa ko'nmasa!.. Egardan sakrash - ajal bilan o'ynashishdek gap! Benzini ham ado bo'laqolmaydi marazning!..

Dala tugab, Cho'li Akbar qishlog'iga kirdim. Bir guruh yigitlar qarshi tomondan kelmoqda edilar. Oradagi masofa yigirma qadamcha, qolganda, iyagim bilan motasekilga ishora qildim:

- Qaerini burasa to'xtaydi?

Yigitlar bir so'z deyishmadi, yelka qisib qo'ya qolishdi.

Yo'lni cho'lga burdim.

...Cho'lga kirgach, o'zimni ancha erkin his qila boshladim.

"Mana, keng joyga chiqib oldim, - O'ylayman ko'nglim sal taskin topib.- Bu yoqda hozir rdam ham, mashina ham yo'q. Bemalol yurib, benzinni tamomlayman. Keyin... "Ammobu benzin degani qachon tugaydi? Sho'rginang qurg'ur Karimjon hoji tag'in necha soat poyga chopadi? Bu yog'i qorong'i edi!..

"Battar bo'!B"o'zimni-o'zim koyiyman.- Jazoyi kishi asov otning fe'lini bilmay turib, uzangisiga oyoq qo'ysin!.."

Bir mahal kimdir gapirganday bo'ldi. Ko'z qirimni u yoq-bu yoqqa tashladim. O'ng tomonimda sarg'ish rangli "Ural" mototsikli yonma-yon ketib borardi! Ustida forma kiygan yoshgina yigit - GAIning odami bo'lsa kerak,

- Ana, xolos, bunisi ham bormidi! - yuragim "shig" etib ketdi.

Yigit: "to'xtang, aka, to'xtang!" dedi. Bosh chayqadim. Yigit tezlikni oshirib, meni quvib o'tdi. Mototsiklni yo'limga ko'ndalang qilmochi bo'ldi. Tabiiyki, to'xtamadim, tikka boraverdim, Yigit mototsiklini taqqa to'xtatdi. Yo'lning chap qismidan o'tdim-ketdim. Yigit o'ng tomonimdan borib, men bilan tenglashdi.

- To'xtang deyaipman, sizga! - dedi.

- To'xtatolmayman! - dedim alam bilan.

- Nega?

- To'xtatishni bilmayman!

- Maynavozchilikni qo'ying!

- Ishonmaysiz-a, xudo haqqi, to'xtata olmayman! - dedim kuyunib. - Axir havasga bunaqa qilib yuribmanmi? U yoqda qo'ylarim harom o'lib yotibdi! Azondan beri shu pesning belidaman! O'nqir-cho'nqirlarda silkinaverib, yelkalarim ezilib ketdi! Na to'xtaydi. bu zolim, na sekinlaydi!..

Yigit qah-qah urib kuldi. So'ng:

- Voy siz-ey, gap ko'pga o'xshaydi-ku! - dedi. - Qani, muftani bosingchi. Mufta qidirib, u yoq-bu yoqqa alangladim.

- Ana, chap qo'lningiz yonidagi oq temir bor-ku, o'shani rul bilan qo'shib ushlab, qattiq qising. Ha, balli! Endi...

Yigitning, barcha buyruqlarini jon deb bajo keltirdim. Uni qarangki, tong sahardan buyon vag'illab uchib yurgan kasofatning ovozi to'satdan o'chdi-qoldi. Ablahning ustidan tushdim-u, "shilq" etib uvatga cho'zildim.

Ha, aytmoqchi, qo'ylarning holi ne kechdi, dersiz. "Baxt"imiz yurishib, moldo'xtiri ham, qassob ham hovliga o'sha soatda yetib kelishibdi. Afsuski, qo'ylar oxiratga ketib bo'lishgan ekan.

Shu bo'ldiyu hazilkashlarga gap tortilib qoldi. Meni ko'rdi deguncha, tillari qichiydi:

5 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Ha, chimpion, galdagi poyga qachon bo'ladi?

- Karimjon, qani, bir aytib yuboring, g'altak zambilning qacerini burasa to'xtaydi?

Ba'zan ashula boshlashadi.

- Tinimsiz chopaman, jonon, o'zimni to'xtatolmayman... Bu gaplar bora-bora me'damga tegdi.

- Shoshma, - dedim, - senlarning valaqlashlarini bira to'la go'rga tiqib qo'ya qolay. Boz ustiga taqdir kaminaga biror kasb-korni ravo ko'rmagan, bahonada hunarli bo'lib ham olaman.

Shu maqsadda shofyorlik kursiga kirdim. Olti oy tinim bilmay o'qidim. Qarabsizki, kechagi "Sortovoy" bugun quling o'rgilsin uchinchi klass shofyori! Shunday qilib desangiz, uch yilcha kolxozning yuk mashinasini g'ildiratdim. Shofyorlik ko'p xosiyatli hunar ekan, o'zimni ham, ro'zg'orni h'm fayzga biylab yubordi. Yangangizning quvonganini aytmaydizmi! Voy-bo'y! Hazilkashlar esa, allaqachon tilini tishlab qoldi. Faqat raisimiz Solivoy aka tegajoqligini qo'ymaydi. Qaerda ko'rsa, "Ha, Sortovoy, "domna pech" qalay", deb qo'yadi.

Hayronman, Solivoy aka oldinlari hecham bunaqa emas edi. Keyingi paytlarda negadir shunaqa hazil-mutoyiba qilishni xush ko'radigan bo'lib qoldi. To'g'riso'zligim ma'qul keladimi yo qo'lbola hangomalarim yoqadimi - bilmadim. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin-da.

To'rtinchi Bob

Solivoy aka bir safar "domna pech"ning ahvolini astoydil surishtirdi. So'ngra:

- Shunaqa degin! В Ё"so'radi jiddiy. - Demak, "domna pechining xizmatidan butunlay mahrum bo'libmiz-da?

- Ha, - javob qildim. - "Domna pech" mana, uch yildirki, pensiyada. Ichkilik zoti makruh.

To'rt kun o'tgach, uyimga chopar keldi. Oyoqni qo'l'tiqqa qisib idoraga chopdim. Qaysi ko'z bilan ko'rayki, Solivoy aka "Volga"sining kalitini naqd qo'limga tutqazib turibdigda!

- Muborak bo'lsin, buyursin.

Vo'ajab, baxtni qarang, baxtni! Hushumdan ketishimga bir bahya qoldi. Shu tariqa Karimjon deganingiz bir sakrab "Yigirma to'rtvning egarida o'tiribdi-da!

Oh, naqadar rohat! Ertayu kech ruldaman. Raisning yonida o'zimni vazirday tutib yuraman. Katta-kichik qishloqlar, poyonsiz dalalar... Qaerga borsak, izzat-ikrom. Kolxozdan chetga chiqsak yana maza. Boshliqlar biror idoraga yoki yig'ilishga sho'ng'ib ketishadi. Sen erkin qushsan. Xohlasang, gazeta-jurnal varaqlaysan, istasang, shofyorlar bilan o'ynaysan, valaqlashasan...

Bahsga kelganda Azimga taraf yo'q. Azim qo'shni "Kommuna" kolxozidan. Raisning mashinasini minadi. U bilan harbiy xizmatda yurib tanishganman. O'larday maqtanchoq. Qo'li bo'shadi deguncha, bizning komandirni yerga urib, o'zinikini osmonga chiqarib qo'yardi. Endi raisini maqtashga o'tibdi.

- Shofyorlik tillo kasb, - maqtandi u bir gal. - Xo'jayinim esa, bamisoli gavhar. Dargohi keng, daryo. Uyiga nimaiki kelsa, oqavasi bizning xonadonga borib to'xtaydi. Don-dun, yem-xashak, sabzi-piyoz, meva-cheva... Birortasini bozordan sotib olmayman.

Raisim zo'r-da, ammo senikining mazasi yo'q. Kaltafahm, ziqna.

Jahlim chiqdi, shartta uzib oldim.

- O'zingniki kaltafahm!

Shu-shu bo'ldi-yu, raislar xususida bahsimiz boshlanib ketdi. Hafta sayin markazga boramiz. Raislarimiz majlisga kirishadi. Biz yeng shimarib bahsga tushib ketamiz.

Iyulning oxirlariga Azimlarning kolxoziga bizning kolxozdan o'zaro tekshirish brigadasi boradigan bo'ldi. Bordik. Mezbonlar bizni kolxoz chegarasida kutib olishdi. Azim meni iliq qarshi oldi. Bir paxcha filKjrtli sigaretani zo'rlab cho'ntagimga solib qo'ydi. So'ng:

- Obbo sizlar-ey, tajriba kerak bo'lmasa, kelmaysizlar-a, biz tomonlarga, - dedi gugurt chaqayotib. - Mayli, ishlarimizni ko'ringlar, o'rganinglar. Olib ketganlarning bilan tugab qolarmidi tajribamiz?

Bu gap menga malol keldi. Azimni uzib olmoqchi bo'lgandim, Solivoy aka chaqirib qoldi.

- Sening tajribangga zor emasmiz, - dedim burilib ketayotib.

Jahl bilan mashinaga gaz berdim. Qishloqqa kirib boryapmiz-u, hanuz Azimning gapiga g'ijinaman. Lekin, bir hisobda Azimning gapida jon borga o'xshaydi. Ko'chalar chinnidek toza. Daraxtlarga, ayvon peshtoqlariga cho'g'day qizil matolar osilgan. Ularga "Xush kelibsiz, musobaqadosh do'stlar!", "Namuna" kolxozining paxta ustalariga alan-gali salom!" singari gaplar yozilgan...

Hammadan ham kolxozning bog'i ko'proq yoqdi menga. Bizda ham kattagina bog', bog' o'rtasida koshona shiypon bor. Lekin, egasi ko'chib ketgan hovliday huvillab yotibdi. Bu yerda esa, heh-he!.. Hamma narsa sarishta, hamma narsa muhayyo.

Azim ikkimiz fontan yonidagi skameykada o'tirib, sigaret tutadik. Ikki ko'zim atrofda. "Qoyil" deymen ichimda. Azim kayfiyatimni sezdi chog'i:

- Rais zo'r-da, rais! - deb qo'ydi. Eshitmaganga oldim.

- Mixaylovni bilasan-a, kamandirimiz, - dedi Azim, yana. - Bizning Nabijon aka ham xuddi o'shanning o'zi. Radiodan uch marta gapirib qo'lyagan edi, mana, hammayoq ikki kunda "voh!" bo'ldi-qo'ydi. Hali dalaga borganda, u yoq-bu yoqni ko'rganda bilasan.

Ovqatlanib bo'lib dalaga chiqdik. Bir shiyponga borib to'xtadik. Shunaqa so'limki, xuddi jannat. Mehmonu mezbon uch guruhga bo'linib, uchta paykalga kirib ketishdi. Solivoy aka, Nabijon aka, yana ikki kishi kunbotarga burilishdi. Azim ikkalamiz choy ichib o'tirdik.

- Paxtaning piri deyishadi bizning raisni, В Ё" dedi Azim. В Ё" Ko'p odam undan o'rganib ketadi.

- Bekor gap, - dedim shoshib, - bizning raisga tan bermagan odam yo'q!

- Unday bo'lsa nega o'rgangani keladi?

- O'rgangani emas, o'rgatgani kelgan!

- Bo'lmagan gap!

- Yur bo'lmasa, orqasidan boramiz, qani, kim-kimga o'rgatyapti ekan?

Men haq bo'lib chiqdim. Termosga yaxna choy qo'yib, yetib borganimizda, mening raisim Azimning raisini koyiyotgan ekan.

- Ko'rdingizmi, - der edi u ikkita to'kilgan shonani kaftida tutib. - Bu suvsizlikning oqibati. G'o'zangiz suvdan qolibdi.

- Juda to'g'ri, - dedi Nabijon aka va yon daftarchasiga nimalarnidir yozdi. - Maslahatingiz uchun rahmat.

Azimning yelkasiga sekin turtdim. Azim zarda bilan bosh silkidi. Yo'lda davom etdik. G'o'zasi pastroq dalaga kirganimizda, Solivoy aka bunday dedi:

- Bu g'o'zalarni qo'shimcha o'g'itlab, darhol sug'orish kerak.

- Qimmatli maslahatingiz uchun tashakkur, - Nabijon aka daftariga yana yozdi.

- Mana bu g'o'zalarni esa, b'v'v' dedi Solivoy aka g'o'zasi bo'ychan paykalga o'tganimizda, b'v'v' suvdan tortish, chilpish lozim.

Nabijon aka Solivoy akaga ofarin aytdi.

Azim jadallab raislarning o'ng biqiniga o'tib kelayotgan edi, yugurib yetib oldim. Asta yelkasiga turtib, iljaydim. Azim oldin menga, keyin raislarga yovqarash qildi. Lablari qattiq qimtingan, yuzlari qip-qizarib ketgan edi. Keyingi paykalga o'tganda, mundoq qaragam, Azim yo'q. Orqaga boqdim. Azim termosni qo'ltig'iga qisganicha, narigi paykalning o'rtasiga ketmoqda edi. Men ham shiyponga qaytdim. Azim karavotda chalqancha tushib tek yotar, to'xtovsiz sigareta burqsitar edi.

- Ha, xo'jayin, - dedim kulib, - O'rganishdan charchadingizmi?

Azim sakrab o'rnidan turdi.

- Bo'пти, bo'пти! b'v'v' dedi. - Yur, handalak yeymiz.

Bu, nazarimda taslim bo'ldim, degani edi. Raislar haqida boshqa og'iz ochmadim. To'rtinchi kuni Azim meni muloyimlik bilan kuzatib qoldi.

Sal o'tmay "Kommuna"liklar bizning kolxozga keladigan bo'lib qoldi. Boshda picha tashvish tortdim: ishqilib "Kommuna"liklar kulib ketishmasin-da! Ammo bekorga tashvish tortgan ekanman. Solivoy aka tashkilotchilikka shunaqa chapdast ekanki, yoqamni ushlabman. Shu noxush xabar kelishi bilanoq, darrov yig'ilish o'tkazdi. Radiodan qayta-qayta nutq so'zladi. Butun kolxoz oyoqqa turdi. Natijada ikki kunda barcha ish saranjon-sarishta bo'ldi-qo'ydi. Ko'chalar bamisoli chinni. Qizil alvonlar, shohona bezatilgan shiyponlar, bog' o'rtasida ustiga oq dasturxon yozilgan stollar...

Mehmonlarni ertaga ertalab kolxoz chegarasida kutib olishimiz lozim edi. Uxlab qolishdan cho'chib, kechqurun radiokarnayni boshimga qo'yib yotdim. Azonda "Onam derman" uyg'otib yubordi. Ashula tugagach, Solivoy akamning tanish ovozi eshitildi.

- e'lon eshittiramiz. Kecha xabar berilganidek, bugun kolxozimizga "Kommuna" kolxozidan mehmonlar kelishadi...

Sapchib o'rnimdan turdim. "e'lon" deyapti, demak, oz gapirsa kerak. Obbo, kechikmasam yaxshi edi. Ammo "e'lon" deb boshlangan eshittirish ba'zan uzundan-uzoq nutuqqa aylanib ketadi-ku! Darhaqiqat, shunday bo'ldi. Mashinani eshikka ko'ndalang qilganimda, rais "e'lon"ni yakunlanayotgan edi:

- Shunday, mehmonlar kelib-ketguncha, hamma ish batartib bo'lsin. Kimda-kim kolxozga gap tekkizadigan bo'lsa, keyin o'zidan ko'rsin!..

Mehmonlarni katta yo'lda qarshi oldik. Azimga filKjtrli sigaret tutdim. Bizning ishlar Azimga yoqdi. "Besh-besh!" dedi. Tan olgani uchun ortiqcha pisanda qilib o'tirmadim. Biroq, buning tagida gap bor ekan. Dalaga chiqqanimizda, Azim termos qidirib qoldi.

- Ha? - so'radim.

Azim bir ko'zini ayyorona qisib kuldi.

- Rais buvalar suvsirab qolishmasin...

Termosga yaxna choy to'lg'azib raislar ortidan ergashdik. G'o'za oralab ketdik. Solivoy aka Nabijon akani g'o'zasi bo'liq paykalga boshladi. Ammo Nabijon akaga bu g'o'za yoqmadi.

- Sersuv qilib yuboribsizlar, - dedi. - Suvdan torttirib, zudlik bilan chekanka qildiring.

- Maslahatingiz uchun katta rahmat, - dedi Solivoy aka va yon daftarchasiga nimalarnidir yozdi. Keyin brigadir Sobir akaga qaradi. - Eshitingizmi, nima qilish kerak ekan?

Azim yelkamga turtib iljaydi. Qulog'imga shivirladi:

- Qalay, kimning raisi zo'r ekan?

- O'zi ham yaxshi biladi buni! b'v'v' dedim jerkib. Azim tag'in kuldi.

- Bilsa, nega rahmat aytyapti, nega yozib olyalti?

Ensam qotib, javob bermadim. Termos bo'shaguncha, Solivoy aka Nabijon akaga yana to'rtta rahmat in'om qildi. Azim to'rt marta yelkamga turti.

Past bo'yli g'o'zalar ichiga kirganimizda, Nabijon aka Solivoy aka bilan Sobir akani koyib berdi. So'ng:

- Bularga qo'shimcha o'g'it soldirib, suv berdiring! b'v'v' dedi.

Solivoy aka daftarchasiga yozar ekan, biror laziz taomning ta'mini olayotganday boshini chayqadi:

- Oh-oh-oh! Ofarin sizga! Maslahatingiz uchun ming rahmat!

Azim ovoz chiqarmay uzoq kuldi. Juda jahlim chiqdi. Shartta burildim-da, mashi-namga qarab jo'nadim. Ariq yoqasida o'tirsam, Azim keldi.

- Xo'sh, qalay? - so'radi. Indamadim. Sigaret tutdi, olmadim.

- Ol, olaver! b'v'v' dedi jiddiy. Birozdan so'ng qo'shib qo'ydi. b'v'v' Xafa bo'lma, ikkovimizning raisimiz ham zo'r!..

Azimning yuziga boqdim. U jiddiy gapirmoqda edi. Sigaret tutatib o'tirib, bir lahza o'ylanib qoldik. Keyin to'satdan, baravariga kulib yubordik.

- To'g'ri aytasan! - qichqirdim birdan ko'nglim yorishib. - Ikkovi ham zo'r! Sening raising ham, mening raisim ham!

Shu-shu, ikkovimiz raislar borasida bahslashmay qo'ydik.

Beshinchi Bob

Solivoy akaga "vazir"lik qilib yurib kam bo'lmadim. Yurish-turish - xon taxlit. Qo'l uzun. Shu qo'l bilan ro'zg'orni butlab oldim.

Shu qo'l bilan pochchamga yer undirib berdim - imorat qurib oldi. Shu qo'l bilan...

Biroq, o'ning o'n beshi yorug', o'i beshi qorong'u deganlariday, xotima noxushroq kechdi. Eshitasizmi... Ha, darvoqe, yaxshisi, manavi gazetadan o'qiy qoling, bir tirancha qalamkash voqealarni o'rab-chimg'ab hajv qilibdi bizni. Redaksiya nomlarimizni o'zgartirib, darrov bosib ham chiqaribdi. "Karim"ni "Kabir" debdi, "Solivoy aka"ni - "Nusrat aka". Hajviyaga "Xashaki majlis" deb sarlavha qo'yibdi.

"Rayon firqa qo'mitasida yig'ilishlar ko'pincha kechquron bo'ladi. Qo'mita binosining majlislar zali derazalari allamahalgacha yarqirab turadi. Bino qoshida kattagina xiyobon bor. Xiyobon va gulzorlar oralab o'tuvchi asfalKjt yo'laklar yengil mashinalarga to'lib ketadi. Shofyor ahli mashinalar ichida yoki neon lampochkalar ostida qarta o'ynaydi, ul-bul o'qiydi, xashaki majlis quradi - ro'para kelgan masalani ayqash-uyqash qilib muhokamadan o'tkazadi.

Iyulning o'sha oqshomida ham shunday bo'ldi. Kech soat o'nlariga yaqin o'ttiz chog'li yengil mashina xiyobonga yig'ildi. Kolxoz,

7 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

sovxoza va boshqa tashkilot boshliqlari mashinalardan ildam tushib, zina yonida tik holda doira yasadi. Kimdir ichkaridan chiqib "Kirasizlar ekan" dedi. Rahbarlar ostonadan o'tishdi. Uch shofyor mashinalarini "G'ing!.. G'ing!.." ettirib qayoqqadir jo'nashdi. Kolganlari to'planishib, birpas gurunglashishdi. So'ngra mashinalarga, skameykalarga bo'linib ketishdi. Kim mutolaaga, kim suhbatga, kim qartabozlikka sho'ng'idi. Bir novcha, bir pakana yigit esa gulzorlar oralab sayr qilib ketdi. Havo nihoyatda musaffo edi. To'lin oy beg'ubor osmonning qoq o'rtasida tovlanadi. Atrof sokin. Chigirtkalar chirillaydi, goh-gohida qartabozlarning qiyqirig'i, qahqahasi eshitilib qoladi. Sayr qilib yurgan yigitlar aylanib kelib o'tirg'ichga cho'kishdi. - Oh-oh-oh! Muzdaygina ekan shu yer! - dedi novcha yigit. - Bugun havo juda isidimi, Nosir? Naqd yondiraman deydi-ya! - Hm!.. Endi pastladi issiq! - javob qildi Nosir. Keyin yulduzlar qurshovida yaraqlab turgan oyga suqlanib boqdi.

- Qara-ya, rosa to'libdimi!

- Ha, to'libdi, - dedi novcha migit oyga tikilib. - Aytmoqchi, Nosir, tunovgi zakaz nima bo'ldi?

- Qayshi jakaj? - so'radi Nosir synchalog'ining tirnog'i bilan tishini kovlab.

- Voy, xotirangga vilt tushkur, nomard-ey! - novcha yigit Nosirning yelkasiga qoqdi. - Ho', chinni lagan-chi!

- Ha, umi? - Nosir chetga tufladi. - Hali ham esingdami o'sha? Hm, lagan kelmayapti rayPOga. Kelsin, besh-o'nta undirib beraman.

- Shunday qil, oshna, choynak-piyola, chinni kosa ham kerak. O'zing bilasan, bu yil singilni turmushga chiqaraman. Shunga... Poya-xashak, qovun-tarvuz bizdan.

- Ha, bulturgimi bergan poyang! - Nosir labini burdi. - Yarim mashina!..

- Ha, unda Sobir chinoq xasislik qilgan edi-da, qurumsoq! Bu yil boshqa brigadirdan so'rayman. Rais "Choshroq bo'lsin", dedi deyman, vassalom! Bo'ptimi!

- Bo'pti!

Oshnalar sigaret tutatishdi. Shu payt "Volga"dan jikkak bir yigit otilib chiqdi va bularning oldiga yugurib keldi.

- E, bu yoqdamisizlar! - qichqirdi kaftlarini kaftlariga ishqab. - Hech kimdan durustroq sigaret yo'qi! Qarasam, shu yoqda bir juft olovli ko'z "yilt-yilt" qilib turibdi. Tikilibroq nazar solsam, "Orbita"ning "ko'z"lari! Keyin... Qani, kimda bor "o'pka dori"?

- Bir paytlar sigaretni ko'rsam, ko'nglim ayniydi, der eding-ku? Ё Ё"gap suqdi Nosir. - Endi yana...

- Ha, ikki-uch yil chekmadim. Ichmadim ham. Lekin, iloji bo'lmadi. Axir, hamisha shularning ichida yurganiningdan keyin...

Salim jikkak yigitga sigareta uzatdi.

- Ma. Doim tilanchilik ekan-da seniki!

- UZR. Hozircha havaskor kashandamiz. Qolaversa, tilab cheksang, shirin bo'ladi. - Jikkak yigit sigaretni tutatib uch-to'rt tortdi.

Keyin u yoq-bu yoqqa qarab olib engashdi va sirli ohangda qattiq shivirladi: - Eshitdilaringmi, bugun byuroda Nusrat akani muhokama qilishar ekan!

- Raisingni-ya? - baravar savol tashlashdi ikkovlon.

- Ha-da! Ho' birda aytgan edim-ku, "Nusrat akamning ustidan yuqoriga yozishyapti, raykomdan borib tekshirishyapti", deb.

- O'-o'!.. Ajralib qolmasang edi raisingdan!

- Ajralishim aniq! Ishlar qaltis! Shikoyatdagi hamma yozilganlar to'ppa-to'g'ri chiqdi! Ketadi! Ё Ё"jikkak yigit keskin qo'l siltadi. - E, ketsin-e! O'zim ham juda bezor bo'lib yurgan edim. Shunaqa bema'niliklar qiladiki, prosta g'azabing keladi!

Nosir istehzo bilan iljaydi.

- Ho, endi yomon bo'lib qolibdi-da! Oldinlari rosa maqtar eding-ku, "Raisim zo'r! Raisim xo'roz odam!", deb.

Jikkak yigit boshidan do'ppisini olib, silliq taralgan sochini siladi.

- Ha, u vaqtlarda haqiqatan ham xo'roz edi-da! Bora-bora toji to'kilib... Aytmoqchi, zo'r konKjyagim bor edi, obkelaymi? - Jikkak yigit savoliga javob ham kutmay, mashinasi tomonga yugurib ketdi va hayal o'tmay qo'ltig'iga shisha bilan stakan qistirib keldi. - Yangi raisimning salomatligi uchun bir "otaylik". U kuni to'yda tashlab qo'yishgan edi mashinaga. Ruldan tushganda janozasini o'qib tashlarsiz deb.

Jikkak yigit bularning "yo'q-yo'q!" deyishiga qaramay, shishaning og'zini ochdi.

- Byuro tugaguncha yo'q bo'lib ketadi! - dedi so'ng. - Shunaqa "ulug' ayyom" kunlarida "tortmasak", qachon "tortamiz". Tur,

Nosir, anovi olmadan ikki juftgina uzib kel!

Nosir istar-istamas o'rnidan turdi.

- Ko'p bema'ni fe'llaring bor-da, Kabir! - deya do'ng'illab, nariroqda qorayib turgan olma sari ketdi. Shatirlatib uzdi.

- Ki-im! - degan tovush keldi ishqomning orqasidan.

- Hech kim, otaxon, hech kim! - Bu yoqdan turib qichqirdi Kabir. - Olmangizning shoxidan uch-to'rtta qush uchib ketdi, xolos.

Korovul yo'tala-yo'tala jim qoldi. Kabir qultillatib stakanni to'lg'azdi.

- Yashavor, do'stim! - deya olmalardan birini olib, stakanni ko'tardi. - Eski raisimning "qutlug' parvozi" uchun!..

Kabir Salim bilan Nosirga ham zo'rlab ichirdi. So'ngra:

- Ana shunaqa! - dedi olma chaynab. - Ketadi, bugun albatta ketadi! O'ziyam charx urib rosa yugurdi-da! Shu... yalinadi, hammaga yalinadi! Odamning rahmi keladi! Menga yalinganini aytсалaring! Voy, voy, voy! Hammasini bilaman-da, qilmishlarini!

- Senga nima dedi? - shoshib so'radi Nosir.

- Nima der edi, siru asrorimni hech kimga aytma, deydi-da.

- Ayt dingmi, aytmadingmi?

Kabir chap ko'zini qisib ayyorona kuldi.

- Hech qaysisini "aytmadim". Bu yerdan borganlar meni partkomning kabinetiga chaqirib so'roq qilishdi. Har bahor cho'lga yashirincha sholi, dashtga sabzi-piyoz ektirishini ham "aytmadim". Ularga kechalari mineral o'g'it eltib berganimni ham "aytmadim". Tonna-tonna sholi va sabzavotlar bir bozor aylanib, otning kallasiday "mullajiring" bo'lib kelishini ham "aytmadim".

Fermaning "qozoniiga mushukday buzoqcha tashlab, ho'kizday so'qim olganini o'zlari tekshirib bilishibdi.

- Nahang bo'lib ket-e! - xitob qildi Salim mushtumini qisib. - Ha, yana ni-malarni "aytmading?"

- Hovli-joyini ko'rgansan-a? - gap qo'shdi Nosir, - Ho', o'g'lini uylaganda borgansan-ku, to'yiga! Shohona! Haligidaqa "leviy" aqchalarga tiklagan-da!

Kabir keskin qo'l siltadi.

- E, qayoqda! Daladagi teraklarni kestirib qurdirgan. Usta ham, "hashar"chi ham kolxozdan. Ammo, kolxozning obodonchiligi xususida tariqcha bosh qotirmaydi. Faqat, og'izda, qog'ozda "qotiradi". Mana, Nosir, sening kolxozingni olaylik. Qishloqlarning

8 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

bamisoli shaharchaning o'zi. Yo'llar asfalt. Barcha xonadonlarda suvquvur. Gaz! Biz-dachi? Ko'chalar chigal ipga o'xshaydi! Idora atrofi qo'riq! Klubda har bahor qurt boqi-ladi. Boshqa payt piyoz saqlashadi! Endi, maktab binolarini qara! Laxtak-laxtak! "Ana ketaman, mana ketaman!" deb zo'rg'a turibdi! Uchta qishloq hanuz hovuzdan suv ichadi...

Kabir tag'in "otdi".

- Ana shunaqa! - dedi keyin.- Qilvirligini, poraga yer berishini, kolxozchiga yengil mashina sotishda navbatni chalkashtirishini, cho'tal olishini raykomning o'zi bilar ekan. Bu haqda oldin ham ko'p gap bo'lgan... Xo'-o'sh, shapaloq "mukofot" olganimni ham "aytmadim".

Shu on davraga shalpanquloq shofyor kelib qo'shildi.

- E-ha, suhbat juda qiziq-ku! b' b' u skamekaga o'tirayotib Kabirga qaradi.- Nimani aytmadim!

Nosir ikki og'iz gap bilan suhbat mazmunini tushuntirdi.

- Hm, da! - dedi shalpanquloq yigit.- Xo'sh, nega aytmadim?

Nosir aftini bujmaytirdi.

- E, nega aytmas ekan? - dedi g'ijini.- Aytib, yozib ham beribdi hammasini!..

- Hmm, yaxshi, yaxshi! - bosh tebratdi yigit. - Aytmoqchi "mukofot"ni qaysi "xiz-matlaring" evaziga olgansan? Bilsak bo'ladimi?

- Juda, juda bo'ladi.- Kabir ko'zini suzib bosh tebratdi.- Shu denglar, qeli-noyimiz har kuni "Volgaiga o'tirib, eshikni "qars"

yopadilar. "Kabirboy, Gultepaga haydang! Kabirboy, shaharga buring!.." Jonimga tegdi!

- Kelin oyi,- dedim kunlarning birida.- Umid bilan "yigirma to'rt". xarid qilgansizlar. Haydashni o'rganing, belini qiyishtirib mining qizi taloqni, debman. Bu gap Nusrat akamizga qattiqroq botibdi.

- E, mashinasi bormi raisingni? - so'radi Nosir ko'zlarini katta ochib.

- Ha-da! - bemalol javob berdi Kabir.- Oldingi rayjrokom raising dav-rida olgan, yo'lini qilib. Garajda qantarilib turibdi, yog'i artilmay.

- Ob-bo nomard-ey! Juda ham oshib-toshib ketgan ekan-da, o'zi! - Salim Nosirga qarab bosh silkidi.- Qara-ya! Bizning raislar ham bema'nilik qilishadi-yu, ammo evi bilan... Kattalar nechuk indashmas ekan ularga?

- Kattalar plandan narini ko'rishmaydi! - dedi Salim.

- Indaydi. Mana, endi indaydi! - gapni ilib ketdi Kabir.- Raisim chiqib qolar byurodan, "E yoronlar, muhr bilan kreslomdan ajralib qoldim" deb.

- Menga qara,- Kabirni turti shalpanquloq yigit.- Tag'in nimani aytmadim?

- Tag'inmi? Tag'in...

Shu payt ichkaridan birinchi kotibning yordamchisi zinada paydo bo'lib, suhbatni bo'ldi.

- Kabirboy, ho, Kabirboy! - qichqirdi u. Hamma hushyor tortib jim qoldi. Kabir "Labbay" deya o'rnidan turdi va zina tomonga yugurdi.

- Uchib kolxozingizga borib keling! - dedi yordamchi va Kabirning qulog'iga shivirladi. Kabir bosh irg'adi. So'ng shoshib mashinasiga o'tirdi. Yarim soatlardan so'ng uch kishini olib keldi. Kabir keluvchilar bilan ichkariga kirib ketdi va bir soatlarda olti kishi bo'lib qaytib chiqishdi. Nusrat aka terga g'arq botgan, asabiy titardi.

- Kabir! - jon-jahd bilan baqirdi u zinadan tushayotib. Biroq, ovozi hirqirab, uncha chiqmadi. - Qani kalit?

- Labbay, aka! b' b' Kabir yo'rg'alab Nusrat akanyng yoniga bordi, engashdi, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, chap qo'li bilan kalitni uzatdi.- Mana, akajon! "Kafolat"im tugadimi endi shu bilan?

Nusrat aka Kabirga o'qrayib qaradi, lekin bir so'z demadi. "Tars-turs" yurib mashina oldiga bordi. To'xtab orqasiga qayrildi.

Zinada turganlarga g'azab bilan tikildi.

- "Rahmat" sizlarga! Yaxshi "xizmat" qildilaring! b' b' dedi bo'g'iq, qaltiroq tovushda.- Murodlaringga yetdilaring!..

- Ha, endi shunaqa ekan-da! - so'z qotdi tik turganlardan biri.- Qilmish-qildirmish, deganday...

Nusrat aka o'zini mashina ichiga urdi. Eshikni qars yopdi. Mashina yelday uchib ketdi. Hamma ortidan unsiz qarab qoldi. Kimdir "Ihmm!" deb qo'ydi sekin, Saldan keyin xashaki majlisning davomi boshlandi".

O'qib chiqdingizmi hajviyani. Ha, ma'qul. Qalay, durustmi?

Shu tariqa "vazir"likdan judo bo'ldik. Kolxozda nima ko'p, g'ildirak ko'p. Goh traktorni, goq yuk mashinasini likillatib yurdim.

Kunlarning birida yangiraisdan amri-farmon bo'lib qoldi - avtogarajning tasarrufi gardanimga yuqlandi.

Oldingi zavgar Solivoy akaning qaynog'asi edi, "iste'fo beribdi". Kolxoz mashinalarini buvasining eshak aravasiga aylantirib olgan emish.

Qani, bunisini ham ko'raylik-chi...

Oltinchi Bob

Bizning xonimga "Avtomashinani ko'proq sevasanmi, eringnimi", deb ko'ring-chi, nima derkin? Sira ikkilanmasdan "Ie, anavini, mashinani-da!" deb javob beradi. Voy, uning mashinaga bo'lgan mehru muhabbati!..

Yuk mashinasi minib yurgan paytlarimda ham bir nav edi. Ko'pincha ertalab ko'zini shamg'alat qilib, garajdan chiqardim-da, biror yoqqa sharta ishga jo'nab yuborardim. "Shaharga borib kelaylik", "Falonchi kasal ekan, holidan xabar olib qo'yaylyk", deyolmay qolardi. Garajga mudir bo'ldimu xonimga xudo berdi. Doimo "kichkina" ishi chiqib turadi. Ikki kuchning birida garajda.

- Dadasi, darrov bozorga tushib chiqaylyk, sut, qatiq, tuxum tugab qolibdi, Shunga mashina to'g'rilab bering, "g'iz" etib borib obkelay. Issiqqina bo'lka bo'lsa, undan ham olaman...

- Hoy, dadasi, haligi mashinalaringizga tayinlab qo'ying, yuviladigan kiyim-kechaklarni qoplab taxt qilib qo'yganman.

Bitkombinatga topshirib kelishsin...

- Dadasi...

Buning ustiga markazda Sharofatoy, Fazilatoy degan dugonalari bor, ularnikiga haftada, oyda mehmonga borib turadi. Biroq, biror marta bo'lsin, avtobusda bormaydi. Bir nima desangiz, oldingi zavgarning qilmishlarini ro'kach qiladi.

- Ayasi,- dedim bir kuni,- u zamonlar o'tib ketgan. Qolaversa, davlat avtobus chiqarib qo'yibdi. Shu... ha deb kolxoz mashinasini yugurtiraversak, qanday bo'larkin?

- Qiziq,- labini burdi xonim.- O'zimizning mashinalar turganda, davlatnikida yurarmidim? Bir emas, o'ttiz to'qqizta mashinamiz bo'la turib-a!..

Ana ko'rdingizmi, birodar, yangangiz "Mashinalarimiz"ning nechtaligini ham aniq biladi. Hatto shofyorlarning ismi, familiyasi,

mashinalarning no'mirlari ham xonimga yod!

Ammo yaqinda xunukroq voqea ro'y berdi. Hamma mashinalarni GAIGA olib ketgan edim. Xonim yarmarkaga bormoqchi bo'пти.

Mashina so'ragani garajga kelipti. Kelsa, birorta ham mashina yo'q. Ittifoqo xonim raisning "Volga"sini uchratib qopti.

"Volga"ning shofyorini avrashga tushibdi. Shofyor ham yangi edi. Rozi bo'пти. O'chakishganday, raisni raykomga chaqirib

qolishadi. Rais mashinani uzoq qidiradi. Lekin topolmaydi. So'ng shahardan go'np tashiydigan "dum"li mashinada boradi

raykomga. Hazilkashlar raisni rosa askiya qilishadi. Boz ustiga, kechikkani uchun kattalar achchiqqina tanbeh ham berishadi.

Bechora cho'g' bo'lib yonib, "dum"li mashinada qishloqqa kelsa, shofyor bola bilan xonim "Volga"dan xarid qilingan narsalarni tushirayotgan ekanlar. Xonim raisning avzoini ko'rib shoshib qoladi. Xo'jayin buyurib berdilar "Volga"ni, deydi. Shofyor bu gapni ma'qullaydi. Rais bir so'z demaydi.

Kechki payt to'satdan rais chaqirtirib qoldi. Bordim.

- Endi yetar! ВЪ”dedi rais, yuzlari "pir-pir" uchib.- Ozodsiz zavgarlikdan! Yuragim "shuvv!" etib ketdi. Yangangiz tufayli ilgari ham bir juftgina jazo olgan edim. Obbo, yana biror xizmat ko'rsatibdi-da! Shalvirab xonadan chiqdim. Archa bayrami arafasi bo'lgani sababli zavgarlikdan "ozod" etilganimni xonimga aytmay turishga qaror qildim, lekin bo'lmadi. Aytdim. Bunga xonimning o'zi majbur qildi. Kecha Toshkent kuranti "bong, bong, bong!" qilib, yangi yil kirganini e'lon qilgan-da, xonim yasan-tusan qilib qoldi.

- Ha, xonim? - so'radim.

- Fazilatoynikiga "g'ir" etib borib, yangi yil bilan tabriklab kelay,- javob qildi xonim, gul-gul yonib.- Hamma bolalar uxlashdi. Volgaxon biyaan Chaykaxon uyg'onguncha qaytib kelaman. Yig'lasa, ovutib turarsiz.

Ensam qotdi.

- Tong otmay qoladimi?!

- Bunaqasining gashti boshqa. Uyida telefoni bor shofyorlaringizdan birortasini chaqirtirib bersangiz bas, bir zumda o'tib kelamiz.

- E, qo'ysangiz-chi! ВЪ”dedim tajang bo'lib,- shu mahalda shofyorlarning halova-tini buzamizmi?!

- Ie, anovini! - qoshini chimirdi xonim.- Boradi-da, ish chiqsa. Anovi Mahmud Sultonovga buyura qoling, qirq sakkizu ellik yettining shofyoriga. Men kiyinib bo'lguncha, darrov yetib kelsin!

- Qirq sakkizu ellik yetti buzuq.

- Nega ekan, kecha baloday yurib turgan edi-ku, g'izillab! U bo'lmasa sakson olti-yu, o'ttiz to'rt FYeAni chaqiring.

- U ham buzuq!

- Elligu o'n to'rt FYeV buzuq emasdir? Kuni bilan shag'al tashidi.

- U ham buzuq.

- "Buzuq! Buzuq!" U buzuq bo'lsa, ellik beshu o'n olti FYeG-chi?! Qirq uchu yetmish olti FYeA-chi? O'n oltiyu nolKj yetti FYeD-chi? To'qson to'qqizu yigirma to'rt FYeV-chi? Xo'sh, bular ham buzuqmi?!

- Ular buzuq emas-ku, shaharga kunjaraga ketishgan, ertaga kelishadi,- dedim.- Umuman, ishga yaroqli birorta ham mashina yo'q.

Xonim birpas jim qoldi. So'ng iqki kaftini chekkasiga bosib, boshini chapga xiyol egdi-da, jilmaydi. Qoshlarini chimirdi.

- Bo'lmasa,- iltimos qildi yalingannamo,- anovi mehmon mashinani buyurib bera qoling, birorta shofyoringizga.

- Qaysi mehmon mashina? - hayron bo'ldim.

- Garajning to'rida savlat to'kib turgan sakson uchu qirq bir KYaKchi! Hayratdan ko'zlarim olayib ketdi. Yoqamni ushlab beixtiyor o'rnimdan turdim.

Yopiray! Xotirani qarang-a, xotirani!

Raisning qirq uchinchi yilda frontda tanishgan krasnoyarsklik quroldosh do'sti bor edi. O'sha kelgan edi bola-chaqasi bilan qora "Volga"sida. Uni qarangki, garaj mudiri bo'la turib, men bilmayman o'sha "Volgapning nomerini. Bu xonim bo'lsa, byosh kun ichida toshga po'lat cho'kich bilan yozganday allaqachon yodlab olibdi-ya, xotirangga mog'or tushgur!

- Ha, qo'rqib ketdingiz? - dedi xonim pinagini buzmay.- Qo'rqmang, bir zumda borib kelamiz. Fazilatoyning ko'zini bir o'ynataman-u, qaytaman.

Men hanuz jim edim. Xonim telefon trubkasini qo'limga tutqazdi.

- Mang, buyuring birortasiga. Yoki o'zingiz olib bora qoling, nomeringdan aylanay sakson uchu qirq bir KYaKda.

Jon-ponim chiqib ketdi, Qarangki, bu yerdagi mashinalar qolib, sibirlik mashina ham qutilmaydi bu xonimning dastidan! G'azabimni arang yutdim.

- Endi bunaqa mashinalarda yurolmaysiz, xonim! - dedim nafasim bo'g'ilib,- patta qo'lga tekkan! Haydalganman ishdan!

Xonim jiddiylashdi.

- Ha, quvilganman, o'sha raisning "Volga"sida kataysa qilgan kuningiz! Xonim qo'rqib ketdi.

- Voy, endi nima qilaman! Endi nimada borib kelaman! G'ijinib, tishlarimni tishlarimga qattiq bosdim.

- Man-na,- dedim oyoqlarimni yerga "gurs-gurs" urib,- endi sakson uchu qirq bir KYaKda emas, man-na bunda borib kelasiz Fazilatoynikiga, o'n biru o'n bir - OYOQda borib kelasiz!..

Xonim katta fojeaga yo'liqqan kishiday, holsizlanib o'tirib qoldi.

Yettinchi Bob

Yillar o'tdi. Yosh ham ulg'aydi, bosh ham. Xonim, ya'ni yangangiz, boya shama qilganimday, o'jar-da. Ammo, buni sira tan olmaydi. Ikki gapning birida "go'daksiz, so'taksiz" deb turadi. Bo'lmagan gap. Go'dak ham, so'tak ham emasman. Ko'pni ko'rgan uddaburon yigitman. Masalan, oldi-sottining mayda-chuydasini qo'ying, hatto molfurushlikni ham "do'ndirib" tashlayman. Mana, bir misol.

Tong chog'i uyquga biror xushta'm dorivor qo'shilganmi deyman, juda-juda totli bo'ladi-da! Sira to'ymaysan, kishi. Qani endi, g'ayrat kamarini qattiq bog'lab uxlayversang, uxlayversang. Quyosh ham yuzini ko'rsatmasa, olam zimistonga g'arq bo'lib yotaversa... Yangangizning saviyasi past-da, buni to'g'ri tushunmaydi. Saharlab uyg'otib, ishga buyuraveradi. O'sha kuni ham shunday qildi.

Ajoyib tush ko'rayotgan edim. Tushning bosh qahramoni o'zim. Ha, darvoqe, bir guruh nozaninlardan iborat personajlar ham mavjud edi. Personajlar bilan hamkorlikda daryo sohilidagi ajriqzorda o'tirib, picha shampän ichdik. Keyin qo'ltiqlashib to'qayga kirib ketayotgan edik, allaqaysi daraxt qarsillab sindi. Aslida yangangiz eshikni shiddat bilan taraqlatib ochgan ekan, cho'chib uyg'ondim. Hah, sen zolimdan qutulmadim-qutulmadim-da, dedim. ichimda.

- Hoy, tanbal! - qichqirdi yangangiz,- hali ham yotibsizmi! Mol bozori kutib turmaydi sizni. Turing tezroq! Childirmaday tarang qilib qo'ydim turqing qurg'ur sigirning qornini! Yo'qotib keling shu tug'masni, qorasini ikkinchi ko'rmayin!

- O'ng yonimni birpas bosib yotayin,- to'ng'illadim karavotni g'ichirlatib, b'v'ishim o'ngidan keladi.

Yangangiz ustimdagi ko'rpani yulqib, polga otdi.

- O'ng yonim emish! O'tgan hafta ham "o'ng yonim" deb...

Soatga qarasam, beshdan sal o'tibdi. Qishning bir chimdim kunlarida bu payt naqd qora tunning o'zi bo'ladi. Nihoyatda og'rindim. Lekin, nachora!

Avvaliga mol bozoriga daxldor ishlarimni pochcham rahmatli bitirib yurardi. Endi o'zimga qoldi. Anzirat xoladan sal yoshroq qisir sigirim bor. Do'ngday. Eti ham chakki emas. Sira bo'g'oz bo'lmadi. Uch yildan beri tekinga boqamiz. Shuni sotib bo'g'oz yoki sog'in sigir olishim kerak. Pulning borida sovliq ham olaman. Bu to'g'rida yangangiz bilan qancha jiddiy muzokaradan so'ng to'la bitimga kelingan. Qo'shnim Usmonali kolxoz injenerining usti yopiq mashinasini minadi. U bilan ham kelishib qo'yilgan.

Usmonali yo'talga chalingan takasini sotmoqchi.

Kiyinib tashqariga chiqdim. Qop-qorong'i, Izg'irin. Shamolxo'ja teraklarimning boshini yerga tekizish qasdida hali hal urinib yotibdi. Apil-tapil bozor taraddudini ko'rdik. Ammo, ishchanmiz-da, taraddud ko'rish jarayonida ham bekor yurmadi. Yangangizdan shingil "leksiya"lar "turkum"idan parchalar eshitib turdik. Bizning xonimdek ziqna, qurumsoq odam bo'lmasa kerak dunyoda. Tiyyin nima ekan, tiyyinning yuzdam birini ham hisobga oladi.

- Molni sotayotganingizda qattiq turing,- tayinladi xonim,- bo'g'oz, sersut deb maqtang. Olayotganingizda besh so'mdan emas, bir so'mdan oshiring. Iloji bo'lsa...

G'ashim keldi.

- Sakkiz yuz oltmish to'qqiz so'm yetmish to'rt tiyyin so'rayman,- dedim.

- Ha, bozor-o'charni bilmaysiz-da, So'taksiz. Sizga bozor kolxozning garaji emas, hotamtoylik qilgani.

- Tabiat jag' masalasida sizga g'oyat saxiylik qilib yuborgan-da! - dedim.

Bu gapimga olovga tashlangan qalampirning tutuniday "laziz" javob qaytdi. Bundan "lazzatlanib" yurib, mol bilan qo'yni mashinaga yukladik. Yangangiz "ofarinlar" aytib qoldi.

- Hoy, landavur, ehtiyot bo'ling, eshitib yuraman, mol bozorining dalollari juda olg'ir bo'ladi!

Ensam qotdi. Orqaga qaramay qo'l siltadim. Kishiga alam qilar ekan. Axir, kichkina bola emasman-ku, bitta sigirni almashtirib kelolmasam! Kechadan beri jag'in tinmaydi-ya! Mol bozoriga ishim tushmagan bo'lsa ham har qalay, es-hushim joyida. Qolaversa, dallol, olib sotarlar ham odam bolasi. Ammo bir voqea sal o'ylantirib qo'yadi. Nurali buva degani hatto o'z sigirini sotganida ham dallollik qilgan emish. Uning bir qari sigiri bor edi. Bozorda uni kampiriga yetaklatib qo'yibdi. Bir go'l yigitga bir yarim bahosiga pullabdi. Savdo chog'ida o'z xotinini "Ona, onajon" debdi. Bu - bor voqea. Lekin bunaqangisi kam bo'ladi.

Dam o'tmay yetib bordik. Mashinani do'nglikka to'g'riladik. Usmonali qo'chqorni yetaklab qo'y bozoriga ketdi, men - mol bozoriga. Bozor gavjum. Shamol, g'ala-g'ovur. Xayriyat, xaridor oyog'im ostidan chiqdi-qoldi. Qorong'ida qanday savdo qilamiz, degan tashvishda edim. Akang qarag'ayning ishbilarmon xaridorida qo'l fonar bor ekan, yoqib sigirga ko'z yugurtirdi. U yoq-bu yog'ini ushlab, yelkasiga shappatlab qo'ydi.

- Eti tuzuk, lekin qisir, xashaki,- dedi hirqirab.

- Ha, qisir, - dedim rostiga ko'chib. Xaridor sigirning narxini so'radi.

- Ming ikki yuz so'm,- javob berdim.

- Yo'g'-a, hazillashyapsizmi, ukam. Insof bilan gapiring-da, oshna. Nari borsa, yuz o'n qilo go'shti bor. Besh so'mdan besh yuz ellik so'm. Ana, teri-yu, kalla pochchasini ellik so'm deylik. Olti yuz so'm. Ikkiga bo'lamiz.

- Nimani ikkiga bo'lamiz? - dedim hayron bo'lib.- Olti yuz so'mnimi?

- Yo'g'-e, unda juda insofsizlik bo'lib ketadi. Biz unaqa g'irromlardan emasmiz. Ming ikki yuz so'mni ikkiga bo'lamiz.

- Bo'lmaydi!

Xaridor yelkamga qoqdi. So'ng o'ng qo'limni tutib siltay ketdi.

- Xo'p deng, ukam, yaxshi yigitga o'xshaysiz. Jiyanlaringizga eltib beray. Haqqingizga duo aytib ermak qilib yurishsin. Ana, oltmish bir. Boring, mendan ketsa-ketsin, oltmish ikki.

Unamadim. Xaridor yelkamni uzar darajada qo'limni siltay-siltay oltmish yettiga chiqdi. Bosh chayqab turaverdim. Xaridorim o'ta qattiqlik qilish erkak odamga nomunosib ekanligini ta'kidladi.

- Ha, yigit kishi mard, to'kilgan-sochylgan bo'lishi kerak. Xo'p deng, otam, xo'p deng. Boring, ana oltmish sakkiz yarimga bo'ladimi? Oltmish to'qqizga bo'ladimi? Ha, xo'p deng, endi. Juda yetib qoldi. Bo'lmaydimi! Obbo siz-ey! Boring, mendan ketsa ketsin, to'g'ri!

"To'g'ri"si yetti yuz so'm bo'lsa kerak, deb o'ylab, tag'in unamadim, Xaridor arazlaganday teskari qarab keta boshladi.

- Ko'raman shundan oshirganingizni! Ayoqda turib-turib qaytib ketasiz! Darvoqe, qaytarib ketsam, yomon bo'ladi-ku! Yangangiz sigiri ko'rgan hamon meni yeb yuboradi! Shuni o'ylab qo'rqib ketdim. "Hoy, tog'a, mang, oling, yettitaga!" deya baqirib yuborishimga bir bahya qoldi. Boshqa bir odam kelib qulog'imga shivirladi:

- Ertalabki savdodan qolmang, jigaram. Mol kasod hozir. Juda pishitib ketdi haligi xaridor. Qaytarib ketgandan na foyda!

Yangi suhbatdoshim haligi xaridorni chaqirdi.

- Yetmish ikki urib bersam, tushunadigan yigitga o'xshaysiz, birini menga so'na qilaysizmi?

Birini u olsa, yetmish biri menga qoladi. Yetmishiga unagan, nega yetmish biriga unamas ekanman? "Bo'пти" dedim.

- Yo'q deb turaverasiz.

- Xo'p.

Xaridor keldi. Dallol xaridorning kafti bilan mening kaftimni juftladi. So'ng uzoq siltadi.

- Ana, yetmish bir. Xo'p deng endi. Bering barakani! Men bir xolis, xudojo'y odamman.

Men "yo'q" deb turaverdim, dallol avval xaridorning qulog'iga, keyin mening qulog'imga sirli pichirladi. Xaridorga nima dedi, qorong'u. Menga esa "besh so'm qo'shaman, xo'p deb yuboring" dedi. Dallolning aytganini qildim. Dallol fonarning yorug'ida yetti yuz o'n besh so'mni sanab oldi. Menga yetti yuzu to'rt so'm yetib keldi. Uchovimiz bir-birimizga omad tilab, uch tomonga tarqaldik.

Tong otmagan. G'ala-g'ovur avjida. Bozorchilar bir-birining gapini arang anglab oladi. Arqonni yelkaga tashlab, sigir qidirib yuribman. Ammo durustroq sigir uchramadi. Bo'g'ozini olaqolaman. Qanday qilib topsa bo'ladi bo'g'oz sigirini? Axir, qorniga

"bo'g'oz" deb yozib qo'yilmagan-da! Dallollardan so'rash kerak, shular bilishadi. Savdoni pishirib, mo'mayroq shirinkoma talab qilayotgan kekxa dallolni nishonga oldim:

- Amaki, bizga bo'g'oz sigir kerak edi-da!

- Kerak bo'lsa, topamiz, bo'tam, topamiz. Ha, umringizdan baraka toping, bo'talog'im. Uyingiz gulga to'lgur, saxiyginam. Siz bo'g'oz sigir deysiz-u, biz yo'q deymizmi?

Dallol nevaralarini, ya'ni bizning farzandlarni, garchi tanimasa ham, uzoq maqtadi. Quyuq duo qildi. Xursand bo'ldim. Yaxshi odam bo'larkan-ku, dallollar ham. Yangangiz bo'lsa... Saviyasi past-da.

Dallol meni ichkariroqqa boshladi. Bir sigirning ikki biqinidan ushlab ko'rdi. Bo'g'oz emas ekan shekilli, nari ketdi. Dallolga yoqmagan haligi sigirga razm soldim. Dallol haqiqatan ham bilar ekan, hayvonning beli tasmadekkina edi. Dallolga ikkinchi sigirham yoqmadi. To'la gavdali sigir ham dallolning qo'lbola "laboratoriya"sidan chiqqach, qisir ekanligi ma'lum bo'ldi. Juda pishiq odamni topganga o'xshayman. Kattagina sigirning boshiga bordi. Uni ustiga engashib qornini panjalari bilan pay-paslab, uzoq taftish qildi. Qulog'ini sigirning qorniga tutib nimanidir tingyaadi. So'ng qaddini rostlab mol egasiga yuzlandi.

- Qornidagi bolasi necha oylik? Uch oylik bor-a?

- Uch oylikdan oshdi, to'rt oylik.

Dallol sigirning boshqa tomonlarini ham ko'rdi,

- Ha, to'g'ri,- dedi va orqasiga o'girilib, meni chaqirdi: "Hoy, bolam, qayoqdasiz.

- Shettaman.

- Mana topdim, bo'talog'im. Zo'r govmish! To'leingiz bor ekan.

Sigir hozirgina pullangan govmushingasal o'xshab ketardi. Lekin u xashaki edi, bu esa bo'g'oz, zotdor! Sigirni aylanib tomosha qildim.

- Ishqilib aniqmi, bo'g'ozligi? Dallol qo'lini siltab tashladi.

- E, oppoq soqolim bilan yolg'oi gapiramanmi? Tepamda xudo turibdi! Men xolis odamman,- u mol egasiga ishora qildi.- Menga u ham bir, siz ham. Musulmonman. Savdoni bitiraylik. Himmat qilsangiz uchta so'm berarsiz, himmat qilmasangiz... Shu o'n besh tangani deb imonimni, oxiratimni sotamanmi? Yoshim payg'ambar yoshidan oshdi. Qani, bering qo'lni! Biz bir xo'jatbaror odammiz, savob bo'lsa bas.

Shubhalanib, qo'l bermadim. Mol egasi bidirlab sigirni maqtay ketdi. Sigir qo'ydan yuvosh ekan, kuniga uch paqirdan sut berar ekan.

Qo'l berdim. Dallol qo'llarimizni ushlab turib, molning bahosini so'radi.

- O'n uchta,- javob qaytdi sotuvchidan. Dallol keskin bosh silkidi.

- Yo'q, yetti yuz ellik so'm beramiz,- dedi va qo'limni siltay ketdi.- Ha, bor baraka deng...

Sigir egasi bosh chayqab, qo'lini tortib olmoqchi bo'ldi. Biroq, dallolim anoyi emas, qo'yib yubormadi, Uning qulog'iga shivirladi. Govmushning egasi baqirib berdi.

- Axir, insof qiling, tog'a! - dedi qo'lini arra qilib.- Shu sotadigan sigir-mi?! Govmush-a, govmush! Qornida bolasi bor. Har tuqqanda o'n bir oy sog'diradi. Suti quyuq. Xudo haqi, sotadigan sigir emas, jonyvor! Nima qilay, majbur bo'ldim. Davlat "Jiguli" beradigan bo'lib qoldi. Bo'lmasa, o'lay agar, sotmasdim. Onam xotinim bo'lsin, sotmasdim! Bolalarimning o'ligining ustida o'tiray, sotmasdim!

- O'h, baxtni qarang, baxtni! Alomat sigirga uchrabman,- entikib quvonaman. Dallol uning gapini kesdi:

- Xo'p, xo'p, yetti yuz oltmish qilaylikmi? Yetmishga-chi, akang aylangur? Bor baraka! Ana, sakson!

Mol egasi bosh chayqab qo'lini tortib oldi. Dallol qulog'imga shivirladi.

- Ammo yaxshi govmush ekan-da. Xudo yo'l berib, eson-omon tug'ib bersa, yalchib qolardingiz. Yaxshi sigir - ro'zg'orning qassobi. O'ziyam toyloqdek bola bersa kerak.

Dallol tushmagur o'ta mohir ekan. Uzoq yalinishlar, shivirlashlar, kesatishlardan so'ng yetti yuz to'qson so'mga ko'ndirdi, Oldi-berdidan keyin ayrilishdik. Mashina yoniga kelsam, Usmonali qo'yini sotib chiqib, kabina chirog'ida kitob o'qib o'tiribdi. Sharpamni sezib kitobdan ko'zini oldi va menga iyak qoqdi. Bosh barmog'imni ko'rsatdim. Keyin govmushni mashinaga chiqardim. Endi sovliq olishim kerak edi.

Sovliqni olishim uncha qiyin bo'lmadi. Shu desangiz, bir damda yelin solgan bo'g'oz sovliqni uch yuz qirq so'mga yetaklab chiqdim. Bu safar kabinada emas, bortda ketishga sidqidildan qaror qildim. Axir, ikkovi "ham "og'iroyoq", biror kor-hol bo'lsa...

Sevinib ketyapman. Uddaburonligimni ko'rsatib, yangangizni quvontirishga shoshi-laman. Aksiga olganday, hovlida yo'q-da.

Separator buzuq edi, o'shani ustaga olib ketibdi. Sog'in sigirdan umid qilgan-da!

Mol, qo'yni og'il ustuniga bog'lab, kunjara bilan "mehmon" qilib tursam, va'daga ko'ra Usmonali chiqib qoldi choy ichgani. Bir oz kerilib govmushni, sovliqni ko'rsatdim. Sovliqni yo'tal tutdi. Qo'shnim govmushning narxini so'radi. Javob qildim.

- Yaxshi, arzon,- dedi va negadir sovlig'imga tikilib qoldi: -- Iya! Iya, bu bizning "Ortiqvoy"-ku!

Yuragim orqaga tortib ketdi.

- Yo'g'-e! Yo'g'-e! - G'oldiradim titrab.

- E, xuddi o'sha! Ko'r emasman. Mana, bo'ynida ortig'i bor. Yo'talishi ham o'sha. Engashib, sovliqning "elinipga qaradimu yuragim "shuv" etib ketdi.

- Nahotki!..

- Qo'yfurushlarning qo'liga tushibmiz-da! Qanchaga berishdi?

- Uch yuzu qirqa,- ovozim g'oldirab chiqdi.

- Nomardlar, o'ttizni yulibdi-da ikkovimizdan!

Tovushim chiqmay qoldi. "Buni yangangiz sezmasin, baloga qolaman", demoqchi bo'la-manu aytolmayman. "Sovlig'im" xirillab, nuqul yo'taladi.

- Bunaqa ekan,- sukunatni buzdi Usmonali ikki yelkasi kulgidan titrab,- shu yerda bitishib qo'yaqolar ekanmiz-ku! Qo'y sho'rlikni sovuqda ovora qilib yurmay?

Ohurda yelkamni qisib o'tirsam, o'rtancha qizim yuzini sochiq bilan arta-arti kirib qoldi. Bir mahal sigirga qarab:

- Voy! Sotilmadimi, bu harom o'lgur,- desa bo'ladimi?! Go'yoki miyamga bigiz sanchildiyu tovonimdan chiqib ketdi.

- Nima deding!? - baqirdim horg'in, yig'loqi ovozd. - U "harom o'lguring" allaqachon egasini topib ketgan! Yetti yuz o'n besh so'mga! Bu govmush sal kam sakkiz yuz so'mga kelgan. Bo'g'oz! Erta-indin og'zingga oq tegadi.

This is not registered version of TotalDocConverter.
Qizil nasrning asl nusxasini qayta tiklash uchun qaytib keling.

- Yo'g'e,- tez-tez kiprik qoqdi u.- Molimizning xuddi o'zi-ku!

- Ha, o'sha! - Usmonali beixtiyor qarsak chalib shod qiyqirdi.- Xuddi o'sha! V6y, qo'shnim-ey!

Mol-qo'yga kam qarasam ham har zamonda ko'zim tushib turadi. O'sha! Xuddi o'sha! Qulog'idagi tirtig'i ham! Boshim g'uvilladi.

Ko'zim tindi. Shirin uyquni buzib ayozda bozorga borganim, shilta kechib yurib savdo qilganim, "bu harom o'lgur"ni sotib "govmush" olganim, bozorga tashlab kelgan chervonlarim - hamma-hammasi miyamda ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Sotuvchining ovozi bir oz tanishga o'xshovdi-ya! Negadir o'pkam to'lib, ko'zimga yosh keldi.

- E, kichkina bolamisiz! - Usmonali yelkamga qoqdi.- Xudo to'zim bersin. Baho-nada birpas shamollab keldik-da!

Darrov o'zimni tutib oldim. Ha, shunaqaman. Sirayam go'dak emasman. Biroq, xonim o'z so'zidan qolmaydi. Hamisha "bozor-o'charga so'taksiz", deydi.

Ana shunaqa gaplar. Yillar o'tib yosh ham, bosh ham ulg'aydi. Bu davrda yuqoridagi kabi "xushxo'r" voqealardan qanchadan-qanchasining shohidi bo'lmadik, ne-ne ko'ylarga tushmadik, deysiz. Yana so'zlayversam, heh-he!..